

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix fakulteti

Arxeologiya kafedrası

Qandaharov M.M

TOSHKENT VOHASI IBTIDOIY DAVR JAMOALARI MADANIYATI

5220200 – Tarix bakalavriat ta`lim yo`nalishi

Malakaviy bitiruv ish

Ilmiy rahbar prof Djo`raqulov M. D

Rasmiy taqrizchi t.f.n Djo`raqulova D.M

Malakaviy bitiruv ishi arxeologiya kafedrası 2012 – yil __ – maydagi
majlisida mu hokama qilingan va YADAKga himoya uchun tavsiya etilgan (

№ – son bayonnoma).

Kefedra mudiri:

t.f.n Djo`raqulova D.M

Malakaviy bitiruv ishi YADAKning 2012 – yil ____ iyundagi majlisida himoya qilingan va ____ ball bilan baholangan (№____ - son bayonnoma)

YADAK raisi

A`zolar

Samarqand-2012

Reja

	betlar
KIRISH	3-4
ASOSIY QISM	5-60
I BOB TOSHKENT VOHASINING PALEOLIT VA MEZOLIT DAVRI YODGORLIKLARI	5-38
1 § ILK PALEOLIT	5-8
2 § O'RTA PALEOLIT	8-12
3 § SO'NGI PALEOLIT	12-35
4 § MEZOLIT	35-38
II TOSHKENT VOHASINING IBTIDOIY QOYATOSH BOB. SURATLARI	38-51
1 § XO'JAKENT	39-41
2 § QORAQIYASOY	41-51
III TOSHKENT VOHASI IBTIDOIY DAVR BOB YODGORLIKLARINING MADANIY-DAVRIY TALQINI	52-60
XULOSA	61-63
ADABIYOTLAR RO'YXATI	64-73
ILLYUSTRATIV RASMLAR	74-76

Kirish

Toshkent vohasi ibtidoiy davr yodgorliklariga eng boy hududlardan biridir. Bu yerning ibtidoiy qulay va xushmanzara tabiiy sharoitlari hamda ushbu sharoitlarga mos fauna va florasida juda qadim zamonlardan oq ibtidoiy odamlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. Vohaning ibtidoiy davriga oid asosiy yodgorliklari Ohangaron, Chirchiq va Pskem daryolari vodiylaridan topilgan. Ushbu hududlar insoniyat taraqqiyoti tarixining deyarli barcha bosqichlarida odamlar tomonidan istiqomat qilingan va bebaho madaniyatlar yaratilgan.

Toshkent vohasi tarixiy jihatdan O'rta Osiyoning eng qadimiy o'lkalaridan hisoblanadi. Bu yerdan qadimiyligi jihatidan yurtimizda ikkinchi o'rinda turuvchi, bundan 500 ming yillar burungi davrlar bilan sanalangan Ko'lbuloq hamda Qizilolma 2 yodgorliklarining quyi qatlamlari materiallari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Ilk paleolit davridayoq ibtidoiy odamlar tomonidan o'zlashtirilgan Toshkent vohasida o'rta paleolit davrida ham madaniy taraqqiyot gullab-yashnagan. Bu davrga oid Ko'lbuloq (o'rta qatlamlari), Jarsoy, Paltov, G'ishtsoy kabi qator yodgorliklar mutaxassislar tomonidan topib o'rganilgan.

Toshkent vohasining so'ngi paleolit davri ham juda qiziqarlidir. Bu davrga oid Ko'lbuloq (1-3 qatlamlari), Obiraxmat (yuqori qatlamlari), To'daxotin 1 va 2 yodgorliklari materiallari olamshusul ahamiyatga molik materiallarni berdi. Birgina Obiraxmat odami qoldiqlari zamonaviy odamlarning neandertal tipidagi odamlar bilan genetik eihatdan aralashib ketganligi yoki xomo sapiyens sapiyenslar shu yo'l bilan paydo bo'lganligi haqidagi muhim ma'lumotlarni berdikim, bu fan olamida keskin burulishlarga olib keldi.

Toshkent vohasida mezolit davriga oid birgina Qo'shilish makoni topib o'rganilganligiga qaramay, ushbu yodgorlik yurtimizda o'rta tosh davriga oid eng qadimgi yodgorlik ekanligi katta ahamiyatga egadir. Qo'shilish makonining materiallari o'ziga xosligi bilan yurtimizdagi boshqa sinxron yodgorliklardan ajralib turadi.

Toshkent vohasida neolit davriga oid yodgorliklar hozircha topilgani yo'q. Biroq, Xo'jakent va Qoraqiyasoy qoyalardan topilgan suratlar vohada eneolit va bronza davrlarida ham hayot gurkiraganligidan yaqqol dalolat beradi.

Shunday qilib, ushbu bitiruv-malakaviy ish yurtimizning ibtidoiy davr yodgorliklariga eng boy hududlaridan biri Toshkent vohasi yodgorliklarini umumlashtirish va o'rganishga bag'ishlangan.

Bitiruv ishining birinchi bobi, Toshkent vohasidagi paleolit va mezolit davriga oid arxeologik yodgorliklarini o'rganish tarixiga bag'ishlangan. Ushbu bob fasllarga bo'lingan bo'lib, ularda ilk marotaba vohaning tosh davriga oid barcha yodgorliklari umumlashgan holda keltiriladi.

Ishning ikkinchi bobi, Toshkent vohasida mavjud bo'lgan va mutaxassislar tomonidan yaxshi o'rganilgan Xo'jakent hamda Qoraqiyasoy suratlarining o'rganilish tarixiga bag'ishlangan. Unda ushbu suratlarning ishlanish texnikasi, mazmuni va madaniy-davriy talqinlari batafsil bayon qilinadi.

Bitiruv ishining uchinchi, nazariy masalalarga bag'ishlangan bobida Toshkent vohasidagi barcha ibtidoiy davr yodgorliklarining madaniy xosliklari va xronologiyasi, ibtidoiy odamlarning xo'jalik hayoti umumlashgan holda tahlil qilinadi.

Xulosa qismida tadqiqotdan olingan natijalar umumlashtirilgan.

I Bob. Toshkent vohasining paleolit va mezolit davri yodgorliklari

O'zbekiston hududi yer shari miqyosida insoniyat dastlab shakllangan mintaqalar sirrasiga kiradi va madaniyat markazlaridan biri xisoblanadi. Yevroosiyo hududlarida bo'lgani singari yurtimiz tarixi ham paleolit yoki qadimgi tosh davridan boshlanadi. Mamlakatimizda shu davrga oid qator makonlar qayd etilgan va o'rganilgan. Ular qatoriga Farg'ona vodiysidagi Selungur, Chashma, Toshkent viloyatidagi Ohangaron daryosi vodiysidagi Ko'lbuloq va Qizilolma yodgorliklarining quyi qatlamlari, Jarsoy topilmalari hamda Qizilqum hududlaridagi Bo'kantog' kabi yodgorliklarni kiritish mumkin (1-rasm).

1. 1 §. Ilk paleolit

Ilk paleolit davriga oid yana bir yodgorlik Ko'lbuloqning quyi (1- 22) qatlamlaridir¹. Yodgorlik 1962 -yili O. M. Rostovsev tomonidan ochilgan va 1963 -yildan 1990 -yillargacha M. R. Qosimov tomonidan o'rganilgan. Ko'lbuloq Angren shahridan 6 km g'arbroqda, Chotqol tizmasining janubi-sharqiy etaklarida, Qizilolmasoy hamda Jarsoy oralig'ida dengiz satxidan 1000 m baladlikda joylashgan. Shurflar va qazishmalar asosan shu nomli buloqning atrofida o'tkazilgan (1-rasm).

Ushbu 22 ta qatlamlardan 4000 ga yaqin tosh buyumlar yig'ib olingan bo'lib, ular orasida o'yib-kertib ishlangan, tishsimon qurollar, qirg'ichlar, qo'pol va yirik nukleuslar hamda mikok tipidagi qo'l cho'qmorlari aniqlangan. Ularni tayyorlashda malla va kulrang kremniydan, yashma, kremniylashgan ohaktosh, kvars kabi qator tosh jinslaridan foydalanilgan hamda ular sarg'ish patinalarga

¹ Окладников А.П. Исследования памятников каменного века Таджикистана \ МИА. № 66. 1958 а. -С. 68. Касымов М.Р. Многослойная палеолитическая стоянка Кульбулак в Узбекистане \ МИА. № 185. 1972 б. - С. 17. Касымов М.Р. Результаты работ Ахангаранского палеолитического отряда по данным раскопок 1975 г. \ ИМКУ. № 14. 1978. -С. 12. Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана \ Автореферат док. Дисс. Новосибирск. 1990. -С. 40. Касымов М.Р., Тетюхин Г.Ф. К вопросу об археолого-геологическом возросте многослойной палеолитической стоянки Кульбулак \ ИМКУ. Вып. 16. 1980. -С. 13. Касымов М.Р., Годин М.Х. О комплексном исследовании палеолитической стоянки Кульбулак \ ИМКУ. Вып. 17. 1982. -С. 9. Касымов М.Р., Годин М.Х. Важнейшие результаты исследований многослойной стоянки Кульбулак \ ИМКУ. Вып. 19. 1984. -С. 8. Касымов М.Р., Тетюхин Г.Ф., Годин М.Х., Хусанбаев Д.И. К вопросу о комплексном исследовании многослойной палеолитической стоянки Кульбулак в Узбекистане \ КСИА. Вып. 181. 1985.-С. 10.

ega. Biroq bu qatlamlar juda kam maydonda (9 m^2) aniqlangan. Qazishmaning chuqurligi 19 m. gacha yetadi (3 - sonli qazishma).

Ko'lbuloqning ilk paleolit davriga oid quyi qatlamlari tipologik jihatdan 550 000 yillar bilan sanalangan, madaniy jihatdan esa yodgorlik materiallari O'rta Osiyo va Qozog'istonda yagona bo'lgan Ko'lbuloq madaniyatiga ajratilgan².

Ko'lbuloqdan 1 km. shimoliy-g'arbda Qizilolmasoy 2 topilma joyining g'arbiy chekkasidan N. K. Anisyutkin tomonidan yana bir ilk paleolitga oid qatlam aniqlangan³. Bu yerdan neogen yotqiziqlarining bevosita ustki qismidan 20 sm. qalinlikdagi qatlamdan 214 ta tosh buyum yig'ib olingan. Ular orasida Ko'lbuloqning quyi qatlamlaridagiga o'xshash bifas limand topilgan. Bu holat Qizilolmadan ma'lum vaqt mobaynida ko'lbuloqliklar ustaxona sifatida foydalanganliklaridan dalolat beradi. Yodgorlik keyingi tadqiqotlar uchun keng istiqbollarni ochib berishi mumkin.

Ohangaron vodiysidagi ilk paleolit davriga oid topilmajoylardan yana biri Ko'lbuloqdan 1 km. shimoliy- sharqda Qizilolma bilan bir xil balandlikdagi ohaktosh qoyalar etagida joylashgan Jarsoy 2 topilma joyi hisoblanadi. Bu yerdan ikkita qo'pol ishlangan bifas va atipik kliverlarni eslatuvchi tosh qurollar topilgan. To'plamning artefaktlari orasida levallua texnikasining foizi juda yuqori bo'lib, bunday industriya O'zbekistonning boshqa hududlarida uchramaydi.

O'zbekiston paleolit davrining turli-tuman va ilmiy jihatdan qiziqarli arxeologiya yodgorliklariga boy bo'lishi bilan birga, bu davr tarixi, yodgorliklarning talqini borasida bir qator munozarali muammolar yechilmagan masalalar ham mavjuddir. Quyida ushbu muammolar to'g'risida baholi qudrat fikr yuritamiz.

² Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана \\\ Автореферат док. Дисс. Новосибирск. 1990. -С. 40.

³ Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О. Новые исследования палеолита в Ахангаране (Узбекистан). Санкт-Петербург. 1995. -С. 12-27.

Ayrim mutaxassislar O'zbekistondagi ilk paleolitga doir ikkinchi yodgorlik Ko'lbuloq topilmalari haqida arxeologik materiallar asosan aralashib ketgan, degan fikrga kelishgan.⁴ Ularning fikricha, Ko'lbuloqdan topilgan materiallar yodgorlikning yaqinida va yuqoriroqda joylashgan Jarsoydan va boshqa soylardan sel oqimlari yordamida oqizib keltirilgan. Shuningdek, M.R. Qosimov va u bilan birga ish olib borgan mutaxassislar Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari sel oqiziq-lari tufayli biroz aralashib ketganligini tan oladilar⁵. M.R. Qosimovning fikricha, Ko'lbuloq ashel (49-27), o'rta (28- 4) va so'nggi paleolit (3-1) davrlariga oid 49 ta madaniy qatlamlardan iborat hamda ular 10-20 sm. dan to 2 m. gacha yetadigan oraliq sof qatlamlar bilan ajratilgan. Demak, M. R. Qosimovning talqinicha⁶ yodgorlik 49 marta ibtidoiy odamlar tomonidan makon tutilgan va shuncha bor tashlab ketilgan. Ammo, bunday deyish uchun yetarli asos yo'q, chunki, bu qatlamlarning ko'pchiligida 20-30 dona ba'zan undan ham kamroq tosh bu yumlar topilgan. Bundan tashqari artefaktlar bilan tosh buyumlar nisbatlari mos kelmaydi. Qatlamlarning boshqa belgilari, masalan, kul qoldiqlarining to'planishi, qatlamdagi aralash jinslarining intensiv holatda rangdorligi va makonni tashkillashtirish elementlari ayrim holatlardagina uchraydi yoki butunlay uchramaydi. Shuningdek, Ko'lbuloq qazishmalarining palinologik kesmasi to'liq namoyon qilingan emas. Undan olingan tahlillarning katta qismi (80% ga yaqini) hych qanday natija bermagan, qolganlarida esa 20-30 ta boshoqli ekinlar qoldiqlari aniqlangan.

Ko'lbuloqda fauna qoldiqlari ham juda kamchilikni tashkil qiladi. Bu yerda ko'proq bug'u, ibtidoiy tur, quyon, ot, sibir tog' echkisi, cho'chqa, g'or shoqoli kabi hayvon suyaklari qoldiqlari uchraydi. Biroq tabiiy fanlar bergan natijalar

⁴ Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. Санкт-Петербург. 1996. -С. 107. Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии \ Душанбе. 1973, -С. 92-94. Несмеянов С.А. К геологии открытых стоянок каменного века Средней Азии \ Жизнь земли. Вып. 13. 1978. -С. 106-107.

⁵ Медведов Г.И., Несмеянов -С.А. Типизация "культурных отложений" и местонахождений каменного века \ Методические проблемы археологии Сибири. Новосибирск. 1988. -С. 139.

⁶ Касымов М.Р. Результаты работ Ахангаранского палеолитического отряда по данным раскопок 1975 г. \ ИМКУ. Вып. 14. 1978. -С. 7.

yodgorlik qatlamlarining yoshini aniqlash uchun yetarli emas. M.R. Qosimov va M.X. Godinlarning yozishicha, yodgorlikning quyi qatlamlari ilk pleystosen davriga oid, ammo bunday talqin qilish uchun yetarlicha ilmiy asoslar yo'q⁷.

Shuningdek, O'zbekistonning ilk paleolit davriga oid Qizilolmasoy 2 hamda Jarsoy topilmajoylari hali to'liq o'rganilmagan.

1.2 §. O'rta paleolit

Nazariy jihatdan o'rta paleolit bundan 100 000 yillar avval boshlanib, to 36000 yillargacha davom etgan. Biroq, bunday sanalash Yevropa arxeologiya yodgorliklari materiallari asosida amalga oshirilgan bo'lib, O'rta Osiyo uchun o'rta paleolitning mahalliy xronologik shkalasi ishlab chiqilmaganligi uchun qabul qilingan. O'zbekiston hududlari paleolitning o'rta bosqichiga oid yodgorliklarga boy hisoblanadi. Ularga Toshkent vohasida Obirahmat, Paltov, Bo'zsuv g'ori, G'ishtsoy ustaxonalarini misol sifatida keltirish mumkin (57-rasm).

Toshkent vohasidagi Obiraxmat va Ko'lbuloqning o'rta paleolitga xos madaniy qatlamlari mazkur davrga oid makonlarga nisbatan yaxshi o'rganilgan hisoblanadi. Bo'zsuv atrofidan bu davrga oid ashyolar topilgan lekin xanuzgacha materiallari chop etilmagan, Paltov g'oridagi tadqiqotlarda kam artefaktlar qo'lga kiritilgan. Ohangaron vodiysidagi Qizilolma 1, 2, Jarsoy 1 va G'ishtsoydan topilgan ashyolar to'laligicha hali o'rganilmagan.

Obiraxmat g'or manzilgohi⁸ Toshkent shahridan 100 km shimoli-sharqda, Chotqol va Pskom daryolari quyilishiga yaqin joyda joylashgan. Yodgorlikning dengiz sathidan balandligi 1250 m (2-rasm). G'or janub tomonga qaragan bo'lib kirish qismi eni 20 m., chuqurligi 9 m. va balandligi esa 11,8 m. ni tashkil qiladi. Manzilgoh 1962 -yili A.R. Muhammadjonov tomonidan kashf etilgan. Yodgorlikda qazish ishlarini dastlab X.K. Nasriddinov, boshlab bergan 1964-

⁷ Ранов В.А., Додонов А.Е. О периодизации и стратиграфии нижнепалеолитических стоянок Средней Азии // Проблемы взаимосвязи природы в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988. -С. 72.

⁸ Насриддинов Х.К. Грот Оби Рахмат // ИМКУ. Вып. 5. 1964. -С.7. Сулайманов Р.Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат. Ташкент. 1972. -С. 98. Ранов В.А., Несмеянов -С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии // Душанбе. 1973. -С. 13.

1965 yillar mobaynida R. X. Sulaymonov tomonidan qazib o'rganilgan. O'sha paytlardagi qazishmalarning umumiy maydoni 60 m² bo'lib, madaniy yotqiziqlarning qalinligi 2 m. gacha yetadi. O'tgan asrning 90 -yillarida yodgorlikda O'zbekiston-Rossiya arxeologiya ekspeditsiyasi qazish ishlarini boshladi (3-rasm). Natijada, Obiraxmatning tosh industriyasi o'rta paleolitning oxiri hamda so'nggi paleolitning boshlanishi davriga oid deb topildi va Markaziy Osiyo paleolitshunosligida birinchi marta "ilk so'nggi paleolit" iborasi fanga kiritildi. Ma'lumki, fanda xomo sapiens sapiens, ya'ni zamonaviy odamning paydo bo'lishi hamda shuning bilan birga so'nggi paleolit davrining genezisi masalalari hozirgacha katta muammo bo'lib qolmoqda. Shuning uchun mutaxassislar tomonidan so'nggi paleolit odami va davrining paydo bo'lishi ildizlarini izlash tabiiy hol va juda dolzarb masaladir⁹.

Zamonaviy odamlarga jismoniy tipi jihatidan eng yaqin gominidlar, ya'ni xomo sapiens arxaiklar bundan 200 000 yillar muqaddam Markaziy Afrikada (Chad) paydo bo'lgani hamda bundan 100 000 yillar muqaddam bu odamlar Yaqin Sharq hududiga tarqalganligi fanda ma'lum. Biroq ushbu gominidlar zvenosining keyingi taqdiri fanda aniqlangani yo'q. Shu tufayli, Obiraxmat g'ori materiallari birinchidan, Yaqin Sharqdagi (xomo sapiens arxaiklarning) Kafzex, Kebara va Sxul yodgorliklari materiallariga o'xshashligi, ikkinchidan, xronologik jihatdan ulardan yoshroq bo'lganligi va uchinchidan, geografik jihatdan Yevropa so'nggi paleolit davri yodgorliklari hamda Yaqin Sharq manzilgohlari oralig'ida joylashganligi sababli so'nggi paleolitning boshlanish

⁹ Деревянко А.П., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Алимов К., Кривошапкин А.И., Анойкин А.А., Милютин К.И., Сайфуллаев Б.К. Исследования грота Оби Рахмат (Республика Узбекистан) в 1999 г. // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Изд-во ИАЭТ СО РАН, Новосибирск. 1999. -С. 44-66. Деревянко А.П., А.И. Кривошапкин, А.А. Анойкин, У.И. Исламов, Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Сайфуллаев Б.К. Ранний верхний палеолит Узбекистана: Индустрия грота Оби Рахмат (по материалам слоев 2-14) // Археология, этнография и антропология Евразии 4 (8). Новосибирск. 2001. -С. 144. Деревянко А.П., Анойкин А.А., Кривошапкин А.И., Милютин К.И., Исламов У.И., Сайфуллаев Б.К. Новые данные о палеолитических индустриях пещеры Пальтау (Республика Узбекистан) // Проблемы каменного века Средней и Центральной Азии. Изд-во Института археологии и этнографии СО РАН. Новосибирск. 2002. -С. 124. Деревянко А.П., Кривошапкин А.И., Анойкин А.А., Милютин К.И., Исламов У.И., Сайфуллаев Б.К. Исследование грота Оби Рахмат (Республика Узбекистан) // Проблемы каменного века Средней и Центральной Азии. Изд-во Института археологии и этнографии СО РАН. 2002.-С. 44. Деревянко А.П., Исламов У.И., 2003. Деревянко А.П., Исламов У.И., Новосибирск. 2004. -С. 158.

davriga oid deb topildi. Go'yoki, fandagi Yevropa bilan Yaqin Sharq oralig'idagi bo'shliq to'ldirildi. Biroq, 2003- yilgi qazish ishlari natijasida, Obiraxmatning 16 -madaniy qatlamidan 1, 3 va 10 yoshli bolalarning suyak qoldiqlari aniqlandi va ular antropologik jihatdan neandertal tipidagi gominidlarga xos ekanligi qayd etildi. Oqibatda, Obiraxmat materiallari o'rta paleolitning oxirlariga oid yodgorlik ekanligi yana bir bor o'z isbotini topdi va unga nisbatan "ilk so'nggi paleolit" iborasining qo'llanilishi asossiz ekanligi ma'lum bo'lib qoldi.

Toshkent vohasidagi o'rta paleolit davriga oid moddiy manbalar Ko'lbuloqning o'rta (23-4) qatlamlaridan olindi. Yodgorlikning o'rta paleolitga oid qatlamlari 1,3 m qalinlikdagi sel oqiziqlari bilan bog'liq tosh siniqlari yotqiziqlarida, yer sathidan 90 sm chuqurlikda joylashgan. M. R. Qosimovning ma'lum qilishicha, bu qatlamlardan 8300 ta tosh buyum topilgan¹⁰. Uning industriyasiga ensiz proporsiyali va turli shakllardagi yirik uchirindilar xarakterlidir. Levallua texnikasida ishlangan yo'nilg'ilar ko'p emas. Nukleuslar orasida ba'zan haddan tashqari ishlov berilgan kichik hajmli gardishsimon o'zaklar ko'pchilikni tashkil etadi. To'plamning tosh qurollari orasida qirg'ichsimonlar mavjud va yirik retushli tishsimon hamda o'yib-kertib ishlangan qurollar ko'p uchraydi. Qirg'ichlarning uzunasiga, ko'ndalangiga ishlangan va boshqa shakllari bor. Shuningdek, ushbu qatlamlarda muste (o'rta paleolit) tipidagi paykonlar, kompozit qurollar, yo'nilg'ilar uchki qismlarida ishlangan qirg'ichchalar, kesgichlar va qo'l cho'qmorlari mavjud. Umuman, Ko'lbuloqning boshqa qatlamlari kabi o'rta paleolitga oid madaniy yotqiziqlari ham O'rta Osiyoda o'xshashi yo'q industriyaga ega bo'lib, ular tishsimon muste madaniyatiga xos deb topilgan¹¹.

¹⁰ Касымов М.Р., Годин М.Х., Худайбердиев Т.Н. Домустьерские культуры на территории Узбекистана \\Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1992. -С. 38-49.

¹¹ Касымов М.Р., Годин М.Х., Худайбердиев Т.Н. Домустьерские культуры на территории Узбекистана \\Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1992. -С. 38-49.

Jarsoy. Ushbu topilmajoy Ko'lbuloqdan 1 km shimoli-sharqda joylashgan va 1994 yilda K.A. Kraxmal tomonidan aniqlangan. 1995 yilda ushbu soydan 30 ga yaqin tosh buyumlar yig'ib olingan va ular o'rta paleolit davriga oid deb topilgan. Ushbu industriyaning o'ziga xos xususiyati unda levallua texnikasining yuqori darajada taraqqiy topganligi hisoblanadi va uning O'zbekiston paleolitida qiyosi yo'q. Jarsoy materiallariga analogiya sifatida Tojikistondagi Xudji materiallari keltiriladi¹². So'ngra, 100 m chamasi yuqoriroqdan Jarsoy-2 punkti aniqlanib, undan ham bir necha o'nlab tosh buyumlar yig'ib olingan. Ular o'zining arxaikligi bilan ajralib turadi va tarkibida qo'pol bifaslar hamda kliverlar (tosh bolta) uchraydi. Shuning uchun ham, uning industriyasi ilk paleolit davri bilan sanalangan. Jarsoyning har ikkala industriyasi ham yashmadan yasalgan buyumlardan iborat¹³.

Toshsoy. O'zbek-Rossiya arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan 1994 yilda ilk paleolit davriga oid yangi Toshsoy yodgorligi ochib o'rganildi. U Toshkent viloyatining Ohangaron tumani hududida, Ko'lbuloqdan 1,5 km shimolroqda, Angren daryosining o'ng irmog'i hisoblangan Toshsoydan 250 m g'arbroqda joylashgan¹⁴. Yodgorlikning xarakterli xususiyati, uning qadimgi yuqori terrasada joylashganligi va chopperlar, o'yib-kertib ishlangan qurollar hamda klekton tipidagi uchirindilardan iborat qadimiy industriyaga egaligidadir. Yodgorlikning tosh buyumlari orasida yashmasimon va mallarang hamda kulrangli kremniy g'o'lalar bo'laklaridan yasalgan chopquvchi qurollar ham mavjud.

¹² Ранов В.А., Амосова А.Г. Раскопки мустьерской стоянки Худжи в 1978 г. Археологические работы в Таджикистане. №18. 1984. – С. 11-47;

¹³ Исламов У.И., Анисюткин Н.К., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О. «Охангарон палеолитчилар гуруҳи 1995 йилги ёзги ва кузги мавсумларда олиб борилган дала-таджикот ишларининг ҳисоботи». Самарқанд. 1996. – С. 21;

¹⁴Исламов У.И., Крахмаль К.А., Анисюткин Н.К. Ташсай-новый древнепалеолитический памятник Узбекистана // ОНУ, №1-2-3, 1995. – С. 47-48;

Toshsoy daryosining o'ng qirg'og'idagi o'rta terrasidan¹⁵ topilgan o'nlab mustye-levallua fasiyasiga mansub tosh buyumlar to'plami ham juda qiziqarlidir¹⁶. To'plam yo'nilg'ilarining ustki tarafi konvergent hamda parallel negativlar izlariga ega. ularning barchasi fasetkalashtirilgan va bo'rtib chiqqan zarb maydonlidir.

1. 3 §. So'ngi paleolit

Ko'lbuloq makoni hamda uning atrofidagi so'ngi paleolit davri yodgorliklari. Ohangaron daryosi vohasi qadimiy va xushmanzara maskanlardan biri bo'lib, bu yerda qadimgi tosh davriga oid ko'plab yodgorliklar mavjud. Paleolit davriga oid dastlabki yodgorliklar 1962 yilda Samarchuk hamda Obliq qishloqlari atrofidan O.M. Rostovsev boshchiligidagi yosh o'lkashunoslar tomonidan topilgan. Dala-qidiruv ishlari natijasida Ko'lbuloq makoni hamda bir qator toshga ishlov berish ustaxonalari aniqlangan.

Ohangarondagi ochiq tipdagi yodgorliklardan madaniy qatlamlari saqlanib qolgan Ko'lbuloq makoni alohida ahamiyatga egadir. Ushbu makon Angren daryosining o'ng qirg'og'ida, Obliq qishlog'idan 5 km shimoli-g'arbda joylashgan. Ko'lbuloq makonini o'rganishni uchta bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich M.R. Qosimov nomi bilan bog'liq bo'lib, u yodgorlikning ochilishidan, ya'ni 1962 yildan 1990 yillargacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Ushbu davrda amalga oshirilgan tadqiqot natijalari qator ilmiy maqolalarda hamda M.R. Qosimovning doktorlik dissertasiyasida o'z aksini topgan¹⁷.

¹⁵ Исламов У.И., Анисюткин Н.К., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О. Отчет о проделанной работе кульбулакским отрядом в 1994 г. «Палеоэкология и пути первоначального заселения и обживания северо-востока Узбекистана». Самарканд. 1995. – С. 16;

¹⁶ Там же. – С. 16;

¹⁷ Касымов М.Р. Культуры и варианты палеолита Узбекистана // Каменный век Средней Азии и Казахстана. Ташкент, 1972. – С. 16; Касымов М.Р. Многослойная палеолитическая стоянка Кульбулак в Узбекистане // МИА, № 185. М. 1972а. – С. 31; Касымов М.Р., Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана. Автореф. дисс. докт. ист. наук. Новосибирск, 1990 – С. 13; Касымов М.Р. О проблемах изучения палеолита на территории Средней Азии и Южного Казахстана // ОНУ, № 9, Ташкент, 1990а. – С. 22; Касымов М.Р., Годин М.Х. Важнейшие результаты исследований

M.R. Qosimov tomonidan¹⁸. Ko'lbuloqda olib borilgan ko'p yillik tadqiqotlar natijasida 600 m² maydon ochib o'rganilgan va bu yerdagi №3 shurfdan ashel (22ta qatlam), muste (24 ta qatlam) hamda so'ngi paleolit davriga oid (2 ta qatlam) 49 ta madaniy qatlamlar aniqlangan bo'lib, ulardan ko'plab tishsimon, o'yib-kertib ishlangan, qirg'ichlar hamda tayyak tipidagi tosh qurollar topildikim, bu O'rta Osiyoda o'xshashi yo'q madaniyatga xos edi¹⁹.

M.R. Qosimovning fikriga ko'ra, Ko'lbuloq makonining mohiyati, uning ashel, muste va so'ngi paleolit davriga mansub ko'p qatlamlilikidir. Shuningdek, bu qatlamlar ustma-ust joylashadi va bir-birini uzluksiz davom ettiradi, ya'ni paleolitning ashel davridan muste bosqichiga va o'z navbatida, mustedan so'ngi paleolit davriga o'tish jarayonlari yodgorlikda o'z aksini topadi. «shu ma'noda Ko'lbuloq bir tomondan, Old Osiyo va Kavkaz, ikkinchi tomondan, Oltoy, Sibir, Mo'g'uliston, Hindiston va Pokiston hududlarini o'rganishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Hozirda O'rta Osiyoda yagona bo'lgan, paleolit davrining barcha bosqichlarini o'zida aks ettirgan va yaxshi stratigrafilashgan ko'p qatlamli Ko'lbuloq makoni ushbu hududlarning eng qadimgi tarixini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi...»²⁰.

Ko'lbuloqni o'rganishning **ikkinchi bosqichi** 1994-1995 yillarda O'zbekiston-Rossiya xalqaro ekspeditsiyasi tomonidan amalga oshirildi. Unga

многослойной стоянки Кульбулак // ИМКУ, вып. 19. Ташкент. 1984. – С. 46-48; Касымов М.Р., Годин М.Х., Худайбердыев Т.Н., Домустьерские культуры на территории Узбекистана // Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной, Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1992. – С. 18-20; Касымов М.Р., Дуке Х., Гречкина Т.Ю. О новых данных по каменному веку Туябугуза // ИМКУ, вып. 15. Ташкент. 1979. – С. 11-15; Касымов М.Р., Коробков И.И., Годин М.Х. Стратиграфия, литология и характеристика каменной индустрии многослойной стоянки Кульбулак // Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988. – С. 42-43;

¹⁸ Касымов М.Р. Культуры и варианты палеолита Узбекистана // Каменный век Средней Азии и Казахстана. Ташкент. 1972. – С. 17;

¹⁹ Касымов М.Р., Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана. Автореф. дисс. докт. ист. наук. Новосибирск, 1990. – С. 13;

²⁰ Там же: – С. 13; Касымов М.Р. О проблемах изучения палеолита на территории Средней Азии и Южного Казахстана // ОНУ, № 9, Ташкент, 1990а. – С. 22; Касымов М.Р., Годин М.Х. Важнейшие результаты исследований многослойной стоянки Кульбулак // ИМКУ, вып. 19. Ташкент. 1984. – С. 46-48; Касымов М.Р., Годин М.Х., Худайбердыев Т.Н., Домустьерские культуры на территории Узбекистана // Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной, Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1992. – С. 18-20;

O'zR FA akademigi O'.I. Islomov hamda RFA MMTI professori N.K. Anisjutkinlar rahbarlik qilishdi. Olingan natijalar qator ilmiy maqolalarda va «Predvaritelnyye issledovaniya doliny reki Axangaran za 1994 g.» nomli risolada o'z aksini topdi²¹.

Ekspedisiya tomonidan 1994-1995 yillarda mashhur №3 shurfning janubiy devori tomonidan, 30 m² maydonda 4 ta madaniy qatlam ochib o'rganildi va ulardan 200 taga yaqin tosh buyumlar yig'ib olindi.

Ammo, qazishmalardagi uchinchi madaniy qatlamni tadqiqotchilar so'ngi emas, balki o'rta paleolitning tipik muste variantiga xos, deb topdilar. Bundan tashqari, ular M.R. Qosimov tomonidan ajratilgan "ko'lbuloq madaniyati"²² industriyalarining barchasi yagona kompleks ekanligiga shubha bilan qaradilar²³.

O'zbekiston-Rossiya ekspeditsiyasining ushbu qazishmalarida Ko'lbuloqning so'ngi paleolitga oid uchinchi qatlami uchramagan. Yodgorlikning ba'zi zonalarida uchinchi madaniy qatlamning uchramasligi ilgari ham qayd etilgan edi²⁴.

Shunday qilib, 1994-1995 yillarda Ko'lbuloq makonida olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan quyidagi xulosalar olingan:

- 1) yodgorlik ko'p qatlamli, garchi ularning soni turli qazishmalarda turlicha bo'lsa-da;
- 2) so'ngi paleolit davriga oid yuqori qatlamlarining tosh inventari ko'plab tishsimon va o'yib-kertib ishlangan qurollarga ega va bu M.R. Qosimovning O'zbekiston hududlarida industriyasi alohida tishsimon xarakterdagi "ko'lbuloq

²¹ Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О. Предварительные исследования долины реки Ахангаран за 1994 г.». Санкт-Петербург. 1995. – С. 16-18;

²² Касымов М.Р., Годин М.Х. Важнейшие результаты исследований многослойной стоянки Кульбулак // ИМКУ, вып. 19. Ташкент. 1982. – С. 160;

²³ Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О., Предварительные исследования долины реки Ахангаран за 1994 г.». Санкт-Петербург. 1995. – С. 16-18;

²⁴ Кўрсатилган адабиёт. - С. 19;

madaniyati” hukm surganligi haqidagi fikrini tasdiqlaydi, garchi, bu yetarlicha asoslangan bo’lmasa-da;

3) uchinchi va qisman to’rtinchi madaniy qatlamlarning industriyasi tipik mustega oid tosh buyumlar – qirg’ichlar, paykonlar, o’yib-kertib ishlangan va tishsimon qurollarning son jihatidan ustunligi bilan xarakterlanadi. Biroq, o’yib-kertib ishlangan va tishsimon qurollarning ko’pchiligi inson faoliyati bilan bog’liq bo’lmasligi ham mumkin. Shu ma’noda, F. Bordning tishsimon mustega bergan xarakteristikasini eslash joiz. Tishsimon mustening asosiy belgilaridan biri unda paykonlarning uchramasligi yoki ozchilikni tashkil qilishi hamda tipik qirg’ichlarning kamligidadir. Ushbu holatlar N.K. Anisyutkinning Sharqiy Ovro’padagi tadqiqotlarida ham o’z isbotini topgan²⁵.

N.K. Anisyutkinning xulosa qilishicha, 4-qatlamning industriyasi tashqaridan emas, balki yodgorlikning hududidagina aralashib ketgan tosh buyumlardan iborat. Agar muste davriga oid turli qatlamlardagi yemirilgan buyumlarning uchrashini hisobga olsak, aftidan, yodgorlikda u yoki bu darajada deformasiyaga uchragan qatlamlarning mavjudligini e’tirof etish mumkin²⁶.

Ko’lbuloqning birinchi va uchinchi qatlamlarini V.A. Ranov bitta yagona qatlam va bu qatlam buloq botig’ining relefiga monand ravishda hosil bo’lgan, deb hisoblaydi²⁷: «ushbu qatlamlarni muallif so’ngi paleolit davriga oidligini tan oladi. Ulardan quyidagi muste davri qatlamlari ko’rinmaydi. Ta’kidlash joizki, ushbu muste davri qatlamlarining ayrim joylari turli xil belgilarga: ayrim joylari kul dog’larga, ammo ko’pincha, tosh qurollarning mavjudligiga ko’ra aniqlangan. Ammo, artefaktlar qatlamlarning oraliq maydonlarida ham uchraydi va aftidan, ushbu qatlamlar shartli ravishda ajratilgan. Bu holat shuning bilan ham tasdiqlanadiki, VI madaniy qatlam yashil loyli qatlamning tagi bilan tutashgan va qisman uning ichki qismidagi cho’kindilarga borib taqaladi.

²⁵ Анисюткин Н.К. 1990. – С. 25;

²⁶ Кўрсатилган адабиёт. – С. 22;

²⁷ Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии. Душанбе. 1974. – С. 193;

Bundan kelib chiqib, ushbu qatlamning hamma joyini bir vaqtda paydo bo'lgan, deb bo'lmaydi va ehtimol, bu 4-madaniy qatlamdan boshlab barcha madaniy qatlamlarga ham tegishlidir. Uchinchi va to'rtinchi qatlamlarning tarkibi bir xil cho'kindi jislaridan iborat»²⁸.

Ko'lbuloqning madaniy qatlamlari Z.A. Abramova tomonidan «Paleolit SSSR» nomli tomida ham tilga olingan. Z.A. Abramova M.R. Qosimov singari yodgorlikning so'ngi paleolit davri materiallarini mahalliy mustedan o'sib chiqqanligini va uning alohida ko'lbuloq madaniyatiga oidligini tan oladi²⁹.

Ko'lbuloqni o'rganishning **uchinchi bosqichi** 2007 yilda O'zbek-Rossiya-Belgiya ekspeditsiyasi tomonidan boshlandi³⁰. Bundan maqsad yodgorlikning stratigrafik holatini o'rganishda aniqliklar kiritish, aniq stratigrafiyalashgan qatlamlardan yangi arxeologik materiallar qazib olish, uning qatlamlarini sanalash uchun na'munalar olish hamda Ko'lbuloqni yangi tabiiy-ilmiy fanlar uslublarini jalb qilish asosida tadqiq qilishdan iborat edi.

Ushbu bosqichda olib borilgan tadqiqotlar (2007-2010 yy.), yangi qazishlar hamda eski qazishmalarni tozalashlar natijasida 12 ta stratigrafik qatlamlar aniqlandi. Qazishmalar 5 m² maydonda olib borildi va natijada, tosh buyumlarga juda boy yuqori qatlamlar ochildi (2-3 litologik qatlamlar). Qazishmalar jarayonida 2-qatlamdagi artefaktlar kichik sof qatlam bilan ajralgan ikkita qismda konsentrsiyalashganligi aniqlandi. Har ikkala qatlamlarning industriyasi tipologik jihatdan o'xshash va faqat yosh jihatidan bir biridan biroz farq qiladi. Stratigrafik va sedimentologik ma'lumotlarga ko'ra ushbu qatlamning genezisi prolyuvial jarayonlar bilan bog'liqligi aniqlandi. Ammo ularning shakllanishida sel oqiziqlari ham qisman ishtirok etgan va bu qatlamdagi materiallarning

²⁸ Кўрсатилган адабиёт. – Б. 193;

²⁹ Абрамова З.А. Палеолит Средней Азии и Казахстана. В томе: Палеолит СССР. М.: Изд-во «Наука». 1984. – С. 308;

³⁰ Деревянко А.П., Колобова К.А., Фляс Д., Исламов У.И., Ков Н., Коуп Д., Звинц Н., Павленок К.К., Мамиров Т.Б., Крахмаль К.А., Мухтаров Г.А. Возобновление археологических работ на многослойной стоянке Кульбулак // Проблемы археологии, этнографии и антропологии Сибири и сопредельных территорий: Мат-лы годовой сессии Ин-та археологии и этнографии СО РАН 2007. – Т.13. – Ч.1. – С. 83-89;

qisman aralashib ketishiga olib kelgan³¹. Shunday bo'lsa-da, ushbu qatlamdagi arxeologik materiallarning planigrafik tahlili, shuningdek, bu joyda tosh parraxalarning (cheshuyki) ko'pligi qatlamning juda kam miqdorda aralashib ketganligini ko'rsatmoqda. Undan quyidagi 3-qatlamning materiallari esa, buyumlarning katta aralashuviga xos belgilarga ega. Yana xulosa qilinadiki, 5-dan 10-qatlamgacha bo'lgan katta stratigrafik qalinlik arxeologik jihatdan sof yotqiziqlar hisoblanadi.

2008 yildagi tadqiqotlar tufayli lessli genezisga ega bo'lgan 12-litologik qatlam ochib o'rganildi³². Ushbu qatlamdan o'rta paleolit davriga oid yuzasi yaxshi saqlangan bir nechta tosh buyumlar qazib olindi. Aytish mumkinki, bu "insitli" madaniy qatlamdir, deya talqin qilingan³³. 2-litologik qatlamning tosh buyumlarini yasash uchun asosan mahalliy to'q-kulrang, oq va sarg'ish kremniydan, ba'zan jigarrang va to'q kulrang chaqmoqtoshlardan foydalanilgan³⁴.

2-madaniy qatlamdan olingan tosh buyumlari yorqin mikroplastinkali ko'rinishga ega. Bu yerda toshlarni chaqmoqlashdan asosiy maqsad plastinkalar hamda to'g'ri yoki biroz egik profilli plastinalar sindirib olish bo'lgan. Ular ensiz yoki prizmasimon nukleuslardan chaqmoqlab olingan³⁵.

2-madaniy qatlam industriyasidagi chaqmoqlash jarayoni plastinalar

³¹ Деревянко А. П., Исламов У.И., Колобова К. А., Фляс Д., Кривошапкин А. И., Лещинский С. В., Крахмаль К. А., Звинц С. В., Павленок К. К., Мухтаров Г. А. Возобновление археологических работ на многослойной стоянке Кульбулак в 2007 г. // История материальной культуры Узбекистана. – Вып. 36. – Ташкент: Изд-во «Фан» АН РУз, 2008. – С. 24-37;

³² Деревянко А.П., Исламов У.И., Кривошапкин А.И., Колобова К.А., Фляс Д. Страницы истории древней культуры Узбекистана // Ўзбекистон пойтахти 2200 ёшда. Тошкент шахрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференция, Тошкент, 2009. 7-16 б;

³³ Кўрсатилган адабиёт, - Б. 17.

³⁴ Кулик Н.А. 2008, личное сообщение;

³⁵ Деревянко А. П., Колобова К. А., Исламов У. И., Фляс Д., Павленок К. К. Новый верхнепалеолитический памятник в долине реки Ахангарон (Узбекистан) // Проблемы археологии, этнографии и антропологии Сибири и сопредельных территорий: Мат-лы годовой сессии Ин-та археологии и этнографии СО РАН 2007. – Т.13. – Ч.1 – С. 80-83;

(22,2%), plastinkalar (21,1%) va mikroplastinkalar (21,7%) olishga qaratilgan³⁶. Biroq, ta'kidlash joizki, plastinalar hamda mikroplastinalar chaqmoqlab olish texnikasi turli xil strategiyalarda amalga oshirilgan bo'lib, ular hych qachon bitta nukleusdan davomiy ravishda olinmagan. Zarb maydonchalarning tipologik tahlili shuni ko'rsatdiki, plastinalar, uchirindilar va texnik yo'nilg'ilar olish uchun odatda, tekis zarb maydonchalar shakllantirilgan bo'lsa, plastinkalar hamda mikroplastinkalarning zarb maydonchalari nuqtasimondir.

2-madaniy qatlamning tosh qurollari ko'p va turli-tuman emas. Ular orasida iskanasimon (dolotovidnyye) qurollar ko'pchilikni tashkil qiladi. Son jihatidan ikkinchi pog'onani qirg'ichchalar: yo'nilg'ilarning uchlarida, burchaklarida, yon tomonlarida shakllantirilgan hamda uchirindilar perimetrining 3/4 qismida ishlanganlari egallaydi. To'plamning mikroinventari orasida retushlangan mikroplastinkalar diqqatni tortadi. Odatda ular ikki qirralari mayda retushlangan yoki utilizatsiya jarayonida hosil bo'lgan mikrotanovorlarning (mikrozagotovki) bo'laklaridir.

2009 yilgi mavsumda Ko'lbuloqning so'ngi paleolit davriga oid qatlamlaridan 18 m² maydoni ochib o'rganildi (ta'kidlash joizki ushbu bosqich tadqiqotlarida M.R. Qosimov tomonidan aniqlangan 1-madaniy qatlam uchramagan). Makonning so'ngi paleolit davriga oid gorizontlari ikkinchi litologik qatlamda joylashadi va u prolyuvial genezisga ega bo'lib, yashil-kulrang loyli (supes), turli hajmdagi qumli hamda shag'alli aralashmalardan iborat. Ushbu qatlam prolyuvial xarakterga ega bo'lishiga qaramasdan, undagi arxeologik materiallar juda kam aralashgan. Bu haqda to'plam artefaktlari orasida ko'p sonli tosh parraxalarning mavjudligi hamda tosh buyumlarning gorizontal yuzada qorni bilan yotganligi guvohlik beradi. 2-qatlamning

³⁶ Деревянко А.П., Колобова К.А., Фляс Д., Исламов У.И., Ков Н., Коуп Д., Звинц Н., Павленок К.К., Мамиров Т.Б., Крахмаль К.А., Мухтаров Г.А. Возобновление археологических работ на многослойной стоянке Кульбулак // Проблемы археологии, этнографии и антропологии Сибири и сопредельных территорий: Мат-лы годовой сессии Ин-та археологии и этнографии СО РАН 2007. – Т.13. – Ч.1. – С. 83-89;

materiallari ikkiga ajralgan qatlamchalarda konsentrasiyalashgan holatda yotadi va bu shu davrda odamlar makonni kichik mavsumlar oralig'ida ikki marta o'zlashtirganliklaridan dalolat beradi. Shuning uchun 2-litologik qatlam ikkiga ajratilgan bo'lib, yuqori 2.1-madaniy qatlam qisqa vaqt mobaynida o'zlashtirilgan bo'lsa, ikkinchi 2.2-madaniy qatlam ibtidoiy odam tomonidan uzoq vaqt davomida intensiv istiqomat qilinganligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, texnik-tipologik ma'lumotlarga asoslanib, Ko'lbuloqning 2-madaniy qatlami industriyasini so'ngi paleolitning ikkinchi yarmi bilan sanalash mumkin. Yodgorlikning har ikkala qatlami komplekslari madaniy xosligiga ko'ra yagonadir va genetik jihatdan yaqindir. Bundan tashqari, tadqiq qilingan maydon industriyasining tarkibiga ko'ra, uni uzoq vaqt mobaynida yo'nilg'i-tanovorlar hamda tosh qurollar ishlab chiqarishga mo'ljallangan ustaxona deyish mumkin.

Qizilolma-2. Ushbu topilmajoy Ko'lbuloqdan 1 km shimoli-g'arbda, sharqdan g'arbga qarab cho'zilib ketgan oxakli qoyalarning pastki qismida va dengiz sathidan 120 m balandlikda joylashgan. Yodgorlik 1962 yilda O.M. Rostovsev tomonidan ochilgan³⁷. Qizilolma -2 yodgorligidan o'rta paleolit davriga oid kompleks aniqlangan bo'lib, u toshlarni chaqmoqlash hamda qisman tosh qurollar yasashga mo'ljallangan ustaxona ekanligi³⁸ hamda xom-ashyo konlari yaqinida joylashganligi aniqlangan³⁹. Yodgorlikning ustki qismidan yig'ib olingan materiallar o'rta va so'ngi paleolit davrlariga oid deb topilgan. Qizilolma-2 ning sharqiy qismi buldozer yordamida neogen davri qatlamlarigacha kesib yuborilgan va ushbu neogen davri qatlamining ustidan 25 sm lik qatlam aniqlanib, undan 214 ta tosh buyum yig'ib olingan edi. Ushbu tosh buyumlar orasida qirg'ichlar, o'yib-kertib ishlangan qurollar va bir dona bifas-

³⁷ Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана. Автореф. дисс. на соискание ученой степени доктора наук. Новосибирск. 1990. – С. 8;

³⁸ Касымов М.Р. Памятники каменного века в долине Ангрена // ОНУ. Ташкент, 1967. №2. – С. 57-58;

³⁹ Касымов М.Р. Кремнеобрабатывающие мастерские и шахты каменного века Средней Азии. Ташкент, 1972;

limand va h.k.lar aniqlangan. Ushbu tosh buyumlar ilk paleolit davri bilan sanalangan va Toshkent vohasidagi eng qadimgi materiallar hisoblanadi.

1994 yilgi Ko'lbuloq va uning atrofidagi tadqiqotlar O'zbekiston-Rossiya ekspeditsiyasi tomonidan amalga oshirildi. Unga O'zbekiston tomonidan akademik O'.I. Islomov, Rossiya tomonidan esa RFA MMTI professori N.K. Anisyutkinlar boshchilik qilishdi⁴⁰. O'sha paytlargacha Qizilolma-2 ustaxonasi o'rta hamda so'ngi paleolit davriga oid hisoblanardi. Bu yerdagi neogen qatlamlarining bevosita ustki qismida yotadigan ilk pleystosen davriga oid qatlamdan yig'ilgan materiallar Qizilolmani ilk paleolit davrida ham hukm surganligini ko'rsatdi⁴¹.

2007-2008 yillarda O'zbek-Rossiya paleolitchilar guruhi Qizilolma-2 da tadqiqot ishlarini davom ettirdi⁴², natijada uni o'rganishda qator aniqliklar kiritildi.

Qizilolma 2 ustaxonasi Ko'lbuloqdan 66 m balandlikda joylashgan. Bu yerda arxeologik materiallar argonogen oxaktoshlarga tutashgan adirli-lessli yotqiziqlardan tarkib topgan. 2007 yilda bu yerda bir qator tozalash ishlari olib borildi va qazishmalar uchun qulay maydon belgilab olindi⁴³. 2008 yilda esa, yodgorlikda 8 m² ni tashkil qiluvchi qazishma amalga oshirildi. 4 m gacha

⁴⁰ Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О. Предварительные исследования долины реки Ахангаран за 1994 г.». Санкт-Петербург. 1995. – С. 16-18; Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Хушвактов Н.О. Новые исследования палеолита в Ахангаране (Узбекистан). ИИМК, Санкт-Петербург 1995. – С. 72-74;

⁴¹ Исламов У.И., Анисюткин Н.К., Крахмаль К.А. Древнепалеолитический памятник Кызылалма // ОНУ. Ташкент, 1994. № 9-10. – С. 53-54; Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О. Предварительные исследования долины реки Ахангаран за 1994 г.». Санкт-Петербург. 1995. – С. 16-18;

⁴² Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б., Хушваков Н.О. Раскопки стоянки Кульбулак в 1995 г. Новые археологические открытия и изучение культурной трансформации. – СПб, 1996. – С. 63-65;

⁴³ Деревянко А. П., Исламов У.И., Колобова К. А., Фляс Д., Кривошапкин А. И., Лещинский С. В., Крахмаль К. А., Звинц С. В., Павленок К. К., Мухтаров Г. А. Возобновление археологических работ на многослойной стоянке Кульбулак в 2007 г. // История материальной культуры Узбекистана. – Вып. 36. – Ташкент: Изд-во «Фан» АН РУз, 2008. – С. 24-37;

chuqurlikdagi ushbu qazishmadan topilmalarga boy 3 ta litologik qatlam aniqlandi. Yuqori qatlam (1-qatlam) qadimda qayta hosil bo'lgan va dellyuvial aralash lessdan iborat. 2-qatlamning yotqiziqlari selli genezisga ega, 3-qatlam esa anchayin sokin xarakterdagi yotqiziqlardan iborat. Har uchala qatlamlardan topilgan arxeologik materiallar so'ngi paleolit davriga xos ko'rinishga ega⁴⁴. Ushbu qatlamlardan olingan tosh industriyalar so'ngi paleolit davrining birinchi yarmiga oid deb topildi. Yodgorlikning inventarlari orasida ko'plab nukleuslar, kremen bo'laklari va mayda tosh parchalari uchraydi. To'plamning nukleuslari yassi (ploskiy) va prizmasimonidir. Prizmasimon nukleuslarni chaqmoqlash yarim yelkali va yelkali plastinalar shakllantirish texnikasi orqali amalga oshirilgan. Industriyaning asosiy yo'nilg'i-tanovori plastinalar chaqmoqlash bo'lgan. Shunday bo'lsa-da. To'plamda uchirindilar ko'p sonli va ehtimol, bu nukleuslarni shakllantirish yoki qayta shakllantirishdan hosil bo'lgan. Qizilolma-2 ning tosh qurollari ko'p emas. Ammo, ular orasida so'ngi paleolit davriga oid yorqin na'munalar uchraydi. Bularga qirg'ichchalar va kesgichlarni misol keltirish mumkin.

Oxangaron so'ngi paleolit davri yodgorligi. 2001 yilda Angren daryosining toshkent kompleksiga oid tepaligidan paleolit davri yodgorligi topildi. Yodgorlikning industrisi Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari komplekslaridan farq qilmaydi⁴⁵. Ohangaron yodgorligi Ko'lbuloqdan 5 km g'arbroqda joylashib, u ko'lbuloqliklarning mavsumiy ko'chib yashagan joyi bo'lgan. Topilmajoydan yig'ilgan 85 ta predmetdan 45 tasi nukleuslardir. Ular radial-markazga intiluvchi texnika yordamida haddan tashqari ishlangan ko'rinishlarga ega. Yo'nilg'ilari orasida plastinalar kam sonli (5 ta parallel

⁴⁴ Деревянко А.П., Исламов У.И., Кривошапкин А.И., Колобова К.А., Фляс Д. Страницы истории древней культуры Узбекистана // Ўзбекистон пойтахти 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференция, - Тошкент, 2009. – С.7-16;

⁴⁵ Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана (по материалам многослойной палеолитической стоянки Кульбулак): Автореф. дис. ... д-ра ист. наук. – Новосибирск, 1990. – С. 42;

yelkali yo'nilg'iga 9 ta radial markazga intiluvchi dorsalli uchirindilar to'g'ri keladi). Shuningdek, to'plamda 16 ta mayda uchirindi va atipik plastinalar aniqlangan. Aksariyat hollarda ular atayin sindirilgan. Yo'nilg'ilarning bir qismi nukleuslarda uchraydigan defektlar sababli oxiriga yetmay sinib qolgan ekzemplarlarni tashkil qiladi.

To'plamning ikkilamchi ishlov berilgan buyumlari orasida 5 ta nukleussimon qurollar bo'lib, ulardan 4 tasi haddan tashqari ishlov berilgan yelpig'ichsimon shaklli qoldiq o'zaklardan shakllantirilgan. Bunday kichik hajmli yelpig'ichsimon nukleuslardan biri choppersimon qurolga, ikkinchisi esa qalin tipli qirg'ichchaga yoki tosh randaga (raboga) aylantirilgan⁴⁶.

Xulosa qilib aytish mumkinki, asosiy Ko'lbuloq makoni va uning atrofidagi yodgorliklarda olib borilayotgan yangi kompleks tadqiqotlar Shimoli-G'arbiy Tyanshon hududlarida ibtidoiy davr tarixiy taraqqiyotini to'laroq rekonstruksiya qilish imkonini beradi⁴⁷. Hozirda o'rganilgan hudud bo'yicha ma'lumotlarning yetarli emasligi, avvalombor, aniq stratifigrafiyalashgan yodgorliklarning va sifati yuqori chop etilgan arxeologik materiallarning yo'qligi muammosi sezilmoqda. Ohangaron vodiysidagi yangi tadqiqotlar ushbu bo'shliqni to'ldiradi.

Obiraxmat g'orini yuqori qatlamlari. So'ngi paleolitga oid tosh qurollar hamda uchirindilar va plastinalar nisbatini hisoblab chiqish oqibatida yuqorida tilga olingan obiraxmat madaniyati yodgorliklarida ularning foiz nisbati turlichaligi aniqlandi. Bu holat ularning davriy ketma-ketligini aniqlash imkonini berdi. Ulardan eng arxaigi Teshik-tosh, so'ngra Janubiy Farg'ona, Xo'jakent va

⁴⁶ Сулейманов Р.Х., Тойчиев Х.А., Ташкенбаев Н.Х., Джуракулов М.Дж., Холматов Н.У., Крахмаль К.А., Ибрагимов Р.З., Глантз М., Шпраубер А.Х., Бургер О.Ф., Циммерман Х.П. Отчет по результатам полевых исследований совместной эколого-археологической экспедиции по изучению памятников каменного века (май-июнь, 2001 г). – Ташкент, 2001. Научный архив ИА АН РУз. Фонд 07. 01. №160. – С. 2-13;

⁴⁷ Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана (по материалам многослойной палеолитической стоянки Кульбулак): Автореф. дис. ... д-ра ист. наук. – Новосибирск, 1990. – С. 42;

eng taraqqiy etgan kompleks esa Obiraxmat g'ori industriyasmi ekanligi aniqlandi⁴⁸.

1998 yilda O'zR FA akad. Ya.G'. G'ulomov nomidagi arxeologiya instituti bilan Rossiya FA SB tarix va etnografiya instituti o'rtasida paleolit davrini o'rganish bo'yicha xalqaro shartnoma imzolandi. Loyiha: "O'zbekistonning qadimgi tosh davri arxeologiyasi va paleoekologisi", deb nomlandi. Akademiklar O'.I. Islomov hamda A.P. Derevyankolar boshchiligidagi xalqaro kompleks tadqiqotlar ekspeditsiyasi tuzildi.

Xalqaro kompleks tadqiqotlar obyekti sifatida Markaziy Osiyo paleolitda muhim rol o'ynaydigan, Toshkent viloyatida joylashgan Obiraxmat g'or makoni tanlandi⁴⁹.

Xalqaro ekspeditsiyaning Obiraxmatda ish olib borishdan asosiy maqsadi yodgorlikning absolyut sanasini aniqlash, qadimgi atrof-muhitni rekonstruksiya qilish hamda ushbu hududda o'rta paleolitdan so'ngi paleolitga o'tish davridagi qadimgi aholining o'zgarishlarini aniqlashdan iborat bo'ldi (6-rasm)⁵⁰.

Obiraxmat industriyasining barcha qatlamlarida kuzatiladigan asosiy xususiyati o'rta hamda so'ngi paleolit davriga xos texnologik va tipologik belgilarning birga kelishidadir. To'plamning yetakchi o'rin tutadigan nukleuslari orasida so'ngi paleolitga oidlari, avvalombor, ensiz o'zaklar (tosovyye nukleusy), nukleus-kesgichlar (nukleusy-rezsy), prizmasimonlar va

⁴⁸ Сулейманов Р.Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 171;

⁴⁹ Деревянко А.П., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Кривошапкин А.И., Алимов К., Крахмаль К.А., Феденева И.Н., Зенин А.Н., Анойкин А.А. Исследования грота Оби-Рахмат (Республика Узбекистан) в 1998 г.// Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. – Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН. – 1998. – С. 37-45; Деревянко А.П., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Таймагамбетов Ж.К., Кривошапкин А.И., Анойкин А.А., Зенин А.Н., Крахмаль К.А., Алимов К.А. Результаты возобновления исследований грота Оби-Рахмат // УММТ, №30. – Самарканд, 1999. – С. 10-14;

⁵⁰ Деревянко А.П., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Кривошапкин А.И., Алимов К., Анойкин А.А., Милютин К.И., Сайфуллаев Б. Исследования грота Оби-Рахмат (Республика Узбекистан) в 1999 г.// Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. – Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН. – 1999. – С. 60-66;

uchirindilardan yoki yirik plastinalardan ishlangan turli xil mikronukleuslar egallaydi. Biroq, o'rta paleolitga xos yo'nilg'ilarni yuza bo'ylab (ploskostnoye rasuyepleniya) chaqmoqlash strategiyasi saqlanib qoladi (7-rasm).

Levallua tipidagi o'zaklar kam sonli bo'lib, aksariyat hollarda ular so'ngra plastinalar yoki plastinkalar olishga mo'ljallangan so'ngi paleolitga xos ensiz nukleuslarga aylantirib yuborilgan⁵¹. Obiraxmat industriyasi yo'nilg'ilari orasida plastinalar muhim o'rin tutadi va asosiy tosh qurollar ham ulardan ishlangan. Yodgorlikning ko'pgina qatlamlarida plastinalar nisbati 50 % dan oshiqni tashkil qiladi.

Obiraxmat industriyasi uchun o'rta paleolitning uzunchoq paykonlari (ostrokonchnik) bilan so'ngi paleolitning plastinalari o'rtasidagi oraliq shaklni tashkil qiladigan uchli plastinalarning mavjudligi xarakterlidir (8-rasm)⁵².

Yodgorlikning tosh qurollari deyarli bir xil shaklli. Eng ko'p sonni paykonsimon qurollar (retushlangan paykonlar, uchli plastinalar), retushlangan plastinalar, kesgichlar (ko'pincha yonlama tipdagi) tashkil etadi. Tosh qurollarning sezilarli qismini tashkil qiladigan qirg'ichchalar tipologik jihatdan unchalik yorqin emas. Levallua shakllar kam sonli va ular asosan, uzunchoq ko'rinishda. Qirg'ichlar yodgorlikning barcha qatlamlarida mavjud bo'lib, asosan plastinasimon yo'nilg'ilardan ishlangan, ko'pincha ularni retushlangan plastinalardan ajratish qiyin. Tuplamda tipologik jihatdan yorqin kichik hajmli muste tipidagi paykonlar katta o'rin egallaydi⁵³.

⁵¹ Деревянко А.П., Исламов У.И., Кривошапкин А.И., Анойкин А.А., Милютин К.И., Сайфуллаев Б.К. Исследования грота Оби-Рахмат (Республика Узбекистан) в 2001 г. // Проблемы каменного века Средней и Центральной Азии. – Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2002. – С. 68-73;

⁵² Исламов У.И., Кривошапкин А.И. Индустрия грота Оби-Рахмат (Узбекистан) в контексте появления современного поведенческого комплекса на территории Центральной Азии // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2006-2007 йиллар. №6.- Тошкент, 2009. – С. 131-135;

⁵³ Кривошапкин А.И., Анойкин А.А., Милютин К.И., Сайфуллаев Б.К. Новые исследования в гроте Оби-Рахмат // ЎММТ, №33. – Тошкент, 2002. – С. 35-40;

Obiraxmatda olib borilgan tadqiqotlar natijasida ushbu hududlarga o'rta paleolit davri odamlarining migrasiyasi haqidagi g'oya ilgari surildi. Bu so'ngi paleolit davriga o'tish davrini o'zida aks ettirgan, umumiy asosga ega bo'lgan va konvergent rivojlangan Yaqin Sharq, O'rta Osiyo va Oltoy industriyalarining o'xshashliklariga asoslangan edi. Ta'kidlanishicha, madaniyatlar evolyusion o'zgarishlarining konvergenetligi umumiy asoslaridan tashqari, o'xshash paleoekologik sharoitlar bilan ham xarakterlanadi. Shu ma'noda, levant, oltoy hamda o'rta osiyo qadimgi aholisi tog'larda va tog'oldi hududlarida yashagan bo'lishib, bu joylarda tabiat o'zining murakkab tuzulishi va katta mozaikligi bilan ajralib turadi. Birgina, vodiya bir vaqtning o'zida igma va yapoloq bargli o'rmonlar, mayda bargli va tayga o'simliklari, quruq dasht va o'tloq dashtli assosiasiyalar hukm surgan. Bu holat ibtidoiy odamlarga o'zlari uchun qulay ekologik muhitni tanlash imkonini bergan.

Shunday qilib, migrasiya qilgan guruhlar aholisining madaniy evolyusiyasi o'xshash ekologik sharoitlarda sodir bo'lgan va bu (populyasiyalarning filogenetik va madaniy yaqinligidan tashqari) so'ngi paleolit davri madaniyatlarining shakllanishidagi umumiy adaptasion jarayondir⁵⁴.

To'daxotin makonlari. 2005 yilning avgustida O'zbek-Rossiya paleolithchilar ekspeditsiyasi tomonidan Obiraxmat g'ori hamda Paltov daryosining (Chotqol daryosining o'ng irmog'i) o'rta oqimi hududlarida qidiruv ishlari amalga oshirildi⁵⁵. Natijada, daryoning quyilish joyidan 10 km balandroqdan va uning o'ng qirg'og'idagi baland ikkinchi terassaning subgorizontal maydonidan yig'ma materiallarga ega ikkita punkt aniqlandi. Bu

⁵⁴ Деревянко А.П., Кривошапкин А.И., Анойкин А.А., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сайфуллаев Б.К., Сулейманов Р.Х. Ранний верхний палеолит Узбекистана: индустрия грота Оби-Рахмат (по материалам слоев 2 - 14). // Переход от среднего к позднему палеолиту в Евразии: гипотезы и факты. – Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2005. – С. 446 – 467;

⁵⁵ Исламов У.И., Кривошапкин А.И., Сайфуллаев Б.К., Мухаммадиев А. Г., Алимов К., Колобова К.А., Славинский В.С. Отчёт по археологическим работам 2005 год. Археологические исследования в бассейне реки Пальтау. Самарканд, 2006. Научный архив ИА АН РУз. Фонд 07. 01. №164. – С. 13-18;

joy bir tomondan daryo, ikkinchi tomondan uning chap irmog'i bilan o'ralgan va dengiz sathidan 30 m balandlikda joylashgan (9-rasm).

To'daxotin 1 makoni (41,58° shimoliy kenglik, 70,17° sharqiy.uzunlik; absolyut balandligi 1495 m) vodiyning yuqorisida, ikkinchi terassaning chekkasida joylashgan. **To'daxotin 2 makoni** (41°34'20,4" shimoliy kenglik, 70°09'48,9" sharqiy uzunlik, absolyut balandligi 1496 m) To'daxotin 1 yodgorligidan 140 m g'arbroqda, ikkinchi terassaning qirrasida joylashgan. Bu yerda qazilgan g'ovak yotqiziqlarning umumiy qalinligi 3 m gacha yetadi (10-rasm)⁵⁶.

Bir biridan 140 m masofada joylashgan ushbu punktlar daryo havzasidagi qoyaning nomi bilan To'daxotin deb nomlandi va ularga 1, 2 raqami berildi. 2005 yilda yig'ma materiallar konsentratsiyalashgan joylarga ikkita tekshiruv shurflari yotqizildi. To'daxotin 1 yodgorligini tekshirishdan topilgan madaniy oldiqlar bitta litologik qatlamda aniqlandi va bu qatlam qiyalikda joylashgan bo'lib, anchayin buzilgan. Uning tosh kolleksiyasi nukleuslar (plastinalar va mikroplastinalar uchun mo'ljallangan), uchirindilar va plastinalar uchlarida shakllantirilgan qirg'ichchalar, perimetri bo'ylab ishlangan qirg'ichchalar, retushlangan plastinalar hamda uchirindilar bo'laklaridan iborat⁵⁷. To'daxotin 2 yodgorligida qazilgan 6 m² maydonli shurf, bu yerda bir nechta nisbatan buzilmagan madaniy qatlam mavjudligini ko'rsatdi va ulardan so'ngi paleolit davriga oid artefaktlar yig'ib olindi⁵⁸.

⁵⁶ Исламов У.И., Кривошапкин А.И., Колобова К.А., Милютин К.И., Мухаммадиев А. Г. Отчёт по археологическим работам 2006 гг. Полевые исследования стоянок Оби-Рахмат и Додекатым-П. – Самарканд, 2007. Научный архив ИА АН РУз. Фонд 07. 01. №165. – С. 74-87;

⁵⁷ Кривошапкин А.И., Милютин К.И., Славинский В.С., Рыбин Е.П., Колобова К.А., Новиков И.С., Высоцкий Е.М., Мухаммадиев А.Г. Новые стоянки каменного века в бассейне реки Пальтау // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. – Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2005. - Т.11. - Ч.1. – С. 131-137;

⁵⁸ Кривошапкин А.И., Милютин, К.И., Новиков, И.С., Исламов У.И., Мухаммадиев А.Г. Новые верхнепалеолитические стоянки в бассейне реки Пальтау (Республика Узбекистан) // УММТ, №35. Тошкент, 2006. – С. 19-24; Исламов У.И., Кривошапкин

Yodgorlikdan 2006–2007 yillarda 5 ta madaniy qatlam aniqlandi va ularning eng yuqoridagisi anchayin buzilgan hamda undan paleolit davri materiallari bilan bir qatorda oʻrta asrlarga oid sopol buyumlar ham topilgan.

2006-2007 yillarda Toʻdaxotin 2 makonidagi shurfning yonidan m² maydonli qazishma ishlari olib borildi, natijada 6098 ta tosh buyumlar qazib olindi. Toʻdaxotin 2 makonining stratigrafisi delyuvial-prolyuvial genezisga ega (11-rasm)⁵⁹.

Toʻdaxotin 2 makonida tosh buyumlar yasash uchun xom-ashyo sifatida mahalliy kremen hamda transportirovka qilingan kremen, xalsedon, qayroqtosh, kvars kabi jinslardan foydalanilgan⁶⁰. Eng koʻp qoʻllanilgan materiallar mahalliy va boshqa joylardan olib kelingan kremen, xalsedon, qayroqtosh va kvarsitlar hisoblanadi⁶¹.

Toʻdaxotin 2 yodgorligini stratigrafik kuzatishlar asosida quyidagi xulosalarni keltirilgan: 1) 1-qatlam soʻngi paleolit davri artefaktlari bilan soʻngi davrlar arxeologik materiallari aralashib ketgan holatda va bu antropogen jarayonlar hamda yumronqoziqlarning faoliyati tufayli sodir boʻlgan; 2) 2, 3 va 4-qatlamlarning materiallari nisbatan insitli holatda yotadi va bu planigrafik kuzatishlar, texnik-tipologik hamda applikasion tahlillarda ham koʻrinib turadi. Arxeologik topilmalarning guvohlik berishicha, ikkinchi qatlam ibtidoiy odam tomonidan ancha uzoq vaqt mobaynida istiqomat qilingan boʻlsa, 3 va 4-qatlamlarda hayot nisbatan qisqa vaqt davom etgan; 3) 5-qatlamning tosh buyumlari tabiiy taʼsirlar yordamida biroz joyidan siljigan (12-rasm).

А.И., Колобова К.А., Милютин К.И., Мухаммадиев А. Г. Отчёт по археологическим работам 2006 г. Полевые исследования стоянок Оби-Рахмат и Додекатым-П. – Самарканд, 2007. Научный архив ИА АН РУз. Фонд 07. 01. №165. – С. 74-87;

⁵⁹ Лещинский, 2007, личное сообщение;

⁶⁰ Кулик Н.А, 2005, личное сообщение;

⁶¹ Лисицын Н. Ф. Поздний палеолит Чулымо-Енисейского междуречья. – СПб.: Петербургское Востоковедение, 2000. – 232 с; Акимова Е. В., Стасюк И. В. Мотузко А. Н. К проблеме изучения «мелкопластинчатых индустрий» в палеолите Средней Сибири // Социогенез в Северной Азии. – Иркутск, Иркутский МИОН, 2005. – Часть 1. – С.15–20;

To'daxotin 2 makoni tosh buyumlarining texnik-tipologik tadqiqi natijalariga ko'ra, bu industriyani er. av. 23-21 ming yilliklarga oid yagona madaniy an'analar egalariga xos deyish mumkin. Qatlamlardagi tosh buyumlar tiplarining son jihatidan farq qilishini u yoki bu maydonning istiqomat qilinishi muddati bilan bog'lash mumkin. Bundan tashqari, yodgorlik maydoni atrofdagi daryoning toshib yoki unda suvning kamayib oqishi oqibatida geomorfologik o'zgarishlarga uchragan.

Yodgorlik industriyasining chaqmoqlash texnikasi uchun keyinchalik qo'ndoqli qurollar yasashda foydalanilgan prizmatik va ensiz chaqmoqlash texnikasi yordamida mayda plastinalar olish xarakterlidir. Tosh qurollar orasida mikroinventarlar ko'pchilikni tashkil qiladi (avvalombor, uchburchaksimon mikrolitlar va qirradi o'tmaslashtirilgan plastinkalar) va bu yodgorlikda ixtisoslashgan faoliyat – mavsumiy ovchilik mavjud bo'lganligidan dalolat beradi (13-rasm). Shuningdek, to'plamda talaygina qirg'ichchalar, kesgichlar va tosh bigizlarning mavjudligi yodgorlikni uzoq muddatli "asosiy" (базовый) ovchilik lageri bo'lganligini ko'rsatadi. Biroq, To'daxotin 2 to'plamidagi tosh buyumlar orasida qatlamdan qatlamga evolyusion o'zgarishlar kuzatilmaydi (14-rasm).

Hozirgi kunda ushbu rayonda so'ngi paleolit davriga oid boshqa yodgorliklar uchramaganligi tufayli To'daxotin makonining o'tmishdosh industriyalari hamda uning madaniy-davriy kelib chiqishi masalasida biron narsa deyish qiyin. To'daxotin industriyasiga o'xshash belgilarni Toshkent viloyatidagi Ko'lbuloq⁶² makonining yuqori qatlamlari materiallari orasida uchratish mumkin. Ko'lbuloqdan o'tgan asrda va hozirgi kunda olib borilayotgan qazishma materiallari ularning texnik-tipologik xarakteristikasini To'daxotin materiallari bilan qiyoslash imkonini bermoqda.

⁶² Касымов М. Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана (по материалам многослойной палеолитической стоянки Кульбулак): Автореф. дис. ... д-ра ист. наук. – Новосибирск, 1990. – С. 42;

Xronologik jihatdan Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari materiallari To'daxotin industriyasidan yoshroq ko'rinishga ega. Buning isboti sifatida Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari tosh buyumlari orasida ezma (otjimnaya) texnika yordamida chaqmoqlash yoki retushlashning uchramasligini keltirish mumkin va bu texnik an'ana To'daxotin 2 industriyasida keng qo'llanilgan. Yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari industriyasida qirralari o'tmaslashtirilgan plastinkalar umuman uchramaydi, shunday bo'lsada, Ko'lbuloqning retushlangan plastinkalari To'daxotin makonining quyi qatlamlaridagi shunday buyumlarga o'xshashdir va ular qo'ndoqli qurollar yasashda qo'llanilgan.

To'daxotin 2 makonining yuqori darajada taraqqiy topgan madaniyatning shakllanishidagi ilk bosqichlarga Qizilolma 2 ustaxonasi materiallarini kiritish mumkin⁶³. Bu yerdagi anchayin buzilgan qatlamlardan topilgan tosh buyumlar ilk yuqori paleolit davriga xos ko'rinishga ega. Qizilolmada prizmasimon hamda yuza bo'ylab o'rta hajmli plastinalar chaqmoqlab olish hukmron bo'lishi bilan birga, Ko'lbuloqning so'ngi paleolit davri qatlamlaridagi singari ensiz nukleuslardan mayda plastinkalar sindirib olish strategiyasi ham kuzatiladi (15-rasm). Yodgorlikning uncha ko'p bo'lmagan tosh qurollari orasida qirg'ichchalar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Qizilolma-2 materiallarini o'rganish natijasida, uning hozirda o'rtadan so'ngi paleolitga o'tish davrini aks ettirgan yagona yodgorlik hisoblanadigan Obiraxmatga xos texnologik an'analarning qo'llanilganligi kuzatiladi (ensiz va nukleus-kesgichlarning har ikkala to'plamlarda ham mavjudligi). To'daxotin industriyasini Samarqand makoni materiallari bilan taqqoslanganda⁶⁴, ularda qator o'xshash tiplar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Avvalombor, bu mayda

⁶³ Деревянко А. П., Колобова К. А., Исламов У. И., Фляс Д., Павленок К. К. Новый верхнепалеолитический памятник в долине реки Ахангарон (Узбекистан) // Проблемы археологии, этнографии и антропологии Сибири и сопредельных территорий: Мат-лы годовой сессии Ин-та археологии и этнографии СО РАН 2007. – Т.13. – Ч.1 – С. 80-83;

⁶⁴ Джуракулов М. Д. Самаркандская стоянка и проблемы верхнего палеолита в Средней Азии. – Ташкент, 1987. –С. 172;

plastinalar chaqmoqlab olishga mo'ljallangan karane tipli nukleus-qirg'ichchalar hamda mayda yo'nilg'ilarning uch qismlarida ishlangan qirg'ichchalarda o'z ifodasini topadi. Bir vaqtning o'zida Samarqand makoni industriyasida bir qator arxaik makroqurollar talaygina (bu ko'pgina mutaxassislarning fikricha, O'rta Osiyo so'ngi paleolitining spesifik xususiyatidir). Shuningdek, Samarqand makoni to'plamida yuqori darajada taraqqiy topgan mikroinventarlarning uchramasligi uni To'daxotin bilan yagona madaniyatga kiritish imkonini bermaydi.

Shunday bo'lsada, ta'kidlash joizki, yuqori darajada rivoj topgan so'ngi paleolit kontekstida arxaik chopquvchi qurollarning mavjudligi hamda chaqmoqlashning mikroplastinkasimon mahsulotlarining uchramasligi (ularni chaqmoqlab olishga mo'ljallangan nukleuslar mavjud bo'lsada), hozirgacha munozorali bo'lib qolayotgan madaniy yotqiziqlarning stratigrafik holati hamda turli davrlarda amalga oshirilgan qazish uslublari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. To'daxotin kompleksini agar keng doirada qiyoslaydigan bo'lsak, aytish joizki, er. av. 25–18 ming yilliklarga kelib Ovrosiyo hududlarida qo'ndoqli qurollar ishlab chiqarishga mo'ljallangan mikrolitizasiyaga moyil madaniyatlar barqororlashadi.

To'daxotin 2 industriyasining ayrim kategoriyalari bo'yicha Sibirning⁶⁵ mayda plastinkalar ishlab chiqariladigan komplekslarida hamda Ovropaning gravetti yodgorliklari to'plamlarida o'xshashliklarni uchratish mumkin. Ushbu industriyalarni talqin qilishda ko'pgina tadqiqotchilar tabiiy-ekologik sharoitlar bilan bog'lab va shundan kelib chiqib, madaniy-texnologik konvergentlik deb hisoblaydilar, qolgan ko'pchilik tadqiqotchilar esa Ovrosiyaning mikrolitli

⁶⁵ Лисицын Н. Ф. Поздний палеолит Чулымо-Енисейского междуречья. – СПб.: Петербургское Востоковедение, 2000. – С. 232; Васильев С. А. Поздний палеолит верхнего Енисея (по материалам многослойных стоянок района Майны). – СПб.: Центр "Петербургское Востоковедение", 1996. – С. 224; Акимова Е. В., Стасюк И. В. Мотузко А. Н. К проблеме изучения «мелкопластинчатых индустрий» в палеолите Средней Сибири // Социогенез в Северной Азии. – Иркутск, Иркутский МИОН, 2005. – Часть 1. – С.15–20;

industriyalarini yagona madaniy-genetik asosga ega va ularni Markaziy Osiyo hududlaridan kelib chiqqan deb hisoblaydilar (16-rasm). Biroq, O'rta Osiyo hududlaridagi yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlarning va natijalarni nashr qilish ishlarining notekisligi, ulardagi stratigrafik kontekstlarning muammoli va munozorali bo'lib qolayotganligi, absolyut sanalarning kamligi yoki yo'qligi Ovrosiyaning Osiyo qismida yuqori o'rin tutgan so'ngi paleolit davri madaniyatlarini genezisi masalalarini talqin qilishni qiyinlashtiradi. Shu ma'noda, To'daxotin, Ko'lbuloq va Qizilolma-2 da olib borilgan yangi kompleks tadqiqotlar mikrolitli madaniy an'analarning ilk bosqichlarini shakllanishi borasida yangi ma'lumotlarni beradi.

To'daxotin 2 makonini boshqa yodgorliklar (Obiraxmat, Qizilolma 2 va Ko'lbuloq) kontekstida tadqiq qilish natijasida xulosa qilish mumkinki, ilgari ta'kidlanganidek, O'rta Osiyo hududlarining er. av. 40-20 ming yilliklar oralig'ida depopulyasiyaga uchraganligi haqidagi qarashlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Aftidan, yuqori neopleystosenning finalidagi kuchli aridizasiya jarayonlari oqibatida qadimgi odamlar Markaziy Osiyo hududlarini butunlay tark etmaganlar, balki landshaftni o'zlashtirishning adaptasion strategiyalarini o'zgartirganlar.

So'ngi paleolitning ilk bosqichlarida qadimgi odamlar doimiy suvlar oqib turadigan ochiq tipdagi tog'oldi hamda tog'lar oralig'idagi chuqurliklardan ko'ra o'rta tog'li poyaslarda joylashgan tabiiy boshpanalarni (g'orlar va ungurlar) yoki tog'oldi buloqlari bo'ylarini afzal ko'radilar. Ehtimol, ekologik sharoitlarning almashinuvi sababli ibtidoiy odamlar ovchilik strategiyalarini keskin o'zgartirishlariga to'g'ri kelgan.

Mayda va tez harakat qiladigan hayvonlarni ovlash, ehtimol, odamlardan ancha yengil va mobil ov qurollarini qo'llashni talab qilgan va bu holat To'daxotin 2 da bo'lgani singari, ishlab chiqarishda mayda plastinkalarning mikrolit qurollarning hukmron bo'lishiga olib kelgan.

Shunday qilib, mustaqillikdan keyingi o'tgan 20 yil mobaynida Toshkent vohasida O'zbek-Rossiya, O'zbek-Amerika hamda O'zbek-Rossiya-Belgiya xalqaro ekspeditsiyalari katta kashfiyotlarni amalga oshirdilar. Obiraxmat odami qoliqlarining topilishi dunyo paleoantropologiya fanida keskin o'zgarishlarning sodir bo'lishiga olib keldi. Bundan tashqari, Obiraxmat topilmalari O'zbekiston hududlarini ilk zamonaviy tipdagi odamlar shakllangan va taraqqiy qilgan hududlardan ekanligini ko'rsatdi. To'daxotin, Jarsoy 2, Toshsoy, Ohangaron kabi yangi yodgorliklar topildi va qiziqarli ma'lumotlarni berdi. Ko'lbuloqning quyi qatlamlari materiallaridan keyin Ohangaron vohasi tarixida Qizilolma-2, Toshsoy hamda Jarsoy kabi ilk paleolit davri komplekslari aniqlandi. To'daxotin 1 va 2 yodgorliklari materiallari yurtimizdagi mezolit davri madaniyatlarining mahalliy genezisga ega bo'lganligini ko'rsatdi. Toshkent vohasi paleolit davri yodgorliklarini kompleks o'rganish ishlari yo'lga qo'yildi. Ko'lbuloq, To'daxotin va Obiraxmat kabi makonlar qatlamlaridan olingan na'munalar aniq fanlar yordamida sanalandi.

1. 4 §. Mezolit

Dunyo paleolitshunoslari birmuncha vaqt mobaynida so'nggi tosh asri bilan neolit davri o'rtasida bog'lovchi yana bir tarixiy davr mavjud bo'lganligini faraz qilishgan va mazkur davr – mezolit haqidagi dastlaki ma'lumotlar XIX oxiri va XX asr boshlarida paydo bo'lgan. Shunga qaramasdan yaqin kunlargacha O'rta Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda mezolit davri jamoalari moddiy madaniyati yaxshi o'rganilmagan davrlardan biri hisoblanardi⁶⁶. B.Z. Gamburg, N.G. Gorbunova, Yu.A. Zadneprevskiy, O'.I. Islomov, V.I. Timofeyev kabi olimlarning izlanishlari tufayli Markaziy Farg'onada, Ye.B. Bijanov va A.V. Vinogradov tomonidan Qizilkumda Ustyurt platosida M.J. Jo'raqulov, N.U.

⁶⁶ Окладников А.П. Изучение древнейших археологических памятников Туркмении // КСИИМК. № 28. 1949. -С.121. Окладников А.П. Древнейшие археологические памятники Краснодарского полуострова // Труды ЮТАКЭ. Т. 2, М.: 1951. -С. 7. Окладников А.П. Палеолитическое время на Тяньшане и Енисее // История Киргизии Т. 1. Фрунзе. 1956. -С. 145. Окладников А.П. Работы палеолитического отряда в 1958 г. (предварительное сообщение) // Известия АНУзб.ССР. серия общественных наук. № 4. Ташкент. 1958. - С. 135.

Xolmatovlar tomonidan O'rta va Quyi Zarafshon voxasida ko'plab mezolit davri makonlari topildi va natijada, bu davr yodgorliklarining turli-tuman madaniy davriy tahlili (interpretasiyasi) haqida fikr yuritish imkoniyati tug'ildi⁶⁷.

Hozirgi kunda O'rta Osiyoda 30 ga yaqin stratigrafiyalashgan va 200 dan ziyod topilma joylar aniqlanib, shulardan katta qismi O'zbekiston hududlariga to'g'ri keladi. Qayd etilgan ushbu yodgorliklarni ikki guruhga ajratish va birinchi guruh yodgorliklariga Obishir 1-5, Machay va Qo'shilish O'rta Zarafshonda Qorakamar, Ochilg'or makonlarini kiritish mumkin; ikkinchi guruhga ochiq tipdagi yodgorliklardan: Aydabol 25, Lavlakon 24 Zarafshonda Chorboqti yodgorliklari va boshqalar kiradi. Butun O'rta Osiyoda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham mezolit davri yodgorliklari xronologik jihatdan ilk va so'nggi davrlarga ajratilgan. Biroq yurtimizdagi bu davr materiallarining aksariyati so'nggi mezolit davri bilan sanalanadi.

Yurtimizdagi mezolit davriga oid yana bir qiziqarli yodgorlik Toshkent atrofidagi Bo'zsuv vodiysida va shu nomli daryoning chap qirg'og'ida joylashgan Qo'shilish makonidir. Yodgorlik 1966-yili geologlar tomonidan ochilib, 1967-yilda O'.I. Islomov tomonidan o'rganilgan. Qazish ishlari natijasida lessimon loy yotqiziqda qisman saqlangan madaniy qatlam mavjudligi aniqlangan⁶⁸. Qatlamdan 200 ta kremendan ishlangan tosh buyumlar, bir nechta hayvon suyaklari qoldiqlari topilgan va bu suyaklar orasida R. K. Qambariddinovning aniqlashicha, xonaki ho'kizga tegishlilari mavjud bo'lgan. Tosh buyumlar orasida plastinalardan ishlangan uchburchak qurollar, uchirindilardan yasalgan pakki-pichoqsimon qirrali o'tkir tig'li qurollar, ko'plab qirg'ichchalar, tosh randalar, sanchqilar va turli xil nukleuslar uchraydi. O'.I. Islomovning fikricha, Qo'shilish makoni yodgorlik qatlamlarining geologik

⁶⁷ Виноградов А. В. Древние охотники и рыбаловы Среднеазиатского междуречья. М. 1981. –С. 14. Джуракулов М. Д. Каменный век Зарафшанской долины. Самарканд. 1992. –С. 40. Холматов Н. У. Мезолит и неолит Нижнего Зарафшана., Т., Фан., 2007. –С. 27-44.. Исламов У. И. Обиширская культура,Т. 1980.-С. 17. Исламов У. И. Пещера Мачай. Т. 1975.-С. 76.

⁶⁸ Исламов У.И. Мезолитическая стоянка Кушилиш под Ташкентом \ ОНУз. № 7. Ташкент. 1970. -С. 13. Исламов У.И. У истоков древней культуры Ташента. Ташкент. 1982. -С. 85.

tasnifi jihatidan O'rta Osiyo shuningdek Shanidar, Palegavra, Gari Kamarband va boshqa O'rta Osiyo hamda Yaqin Sharqdagi boshqa mashhur yodgorliklar bilan taqqoslash asosida ilk mezolit davri bilan sanalanishi mumkin⁶⁹. Bu yodgorliklarning sanasi esa er. avv. X-IX ming yilliklar bilan belgilangan. Biroq, G.F. Korobkovaning ta'kidlashicha, O'.I. Islomov tomonidan keltirilgan Qo'shilish yodgorligining sanasi biroz qadimiylashtirib yuborilgan⁷⁰. Bu birinchidan, O'.I. Islomov o'zi ta'kidlaganidek, madaniy qatlamning ustida yotgan uch metrlik lyoss, agar ushbu hududda lyos hosil bo'lishi tezligini hisobga olsak, yodgorlikning qadimiyligini belgilashi shart emas⁷¹. Ikkinchidan, Qo'shilishning industriyasida so'nggi mezolit davri xarakteriga ega bo'lgan buyumlar ko'p uchraydi: mitti uchburchak qurollar, plastinalarning uchida ishlangan yon qirralarida retushsiz qirg'ichchalar. Uchirindilardan ishlangan yumaloq qirg'ichchalarning ko'pligi, o'yib-kertib ishlangan qurollarning, kesgichlarning, uchlari yo'nilgan qurollarning hamda yupqa va qalamsimon nukleuslarning yo'qligi so'nggi mezolitga xos belgilardir. Uchinchidan, Qo'shilish industriyasi uchirindilardan ishlangan ko'plab yumaloq qirg'ichchalarga, pakki-pichoqsimon o'rkir tig'li qurollar va ayrim mitti geometrik mikrolitlarga ega bo'lgan Markaziy Farg'ona so'nggi mezoliti bilan davriy taqqoslanishi mumkin⁷². Yodgorlikni Shanidar, Palegavra va Gari Kamarband bilan taqqoslash esa hych qanday asosga ega emas. To'rtinchidan, Qo'shilishning qatlamidan topilgan xonaki ho'kizning suyak qoldiqlari O'rta Osiyoda ancha keyingi davrlarda uchraydigan hodisadir. Yuqorida ta'kidlangan dalillar Qo'shilishni so'nggi mezolit bilan sanalashga asos bo'la oladi⁷³.

⁶⁹ Kўrsatilgan адабиёт. -Б. 87.

⁷⁰ Коробкова Г.Ф. Традиции и инновации в культурах мезолита и неолита Бактрии // Древнейшие культуры Бактрии. Тезисы сов-французского симпозиума. Душанбе. 1982. -С. 159.

⁷¹ Исламов У.И. Стоянка Кушилиш // У истоков древней культуры Ташента. Ташкент. 1982 -С. 77.

⁷² Коробкова Г.Ф. Пробелма культур и локальных вариантов в мезолите и неолите Средней Азии // МИА. 122. М. 1970. -С. 24. Коробкава Г.Ф. Мезолит Средней Азии и его особенности // КСИА. 149. М.: 1977. -С. 112.

⁷³ Коробкова Г.Ф. Проблемы культурно-исторического и хозяйственного развития населения древнего Дагестана. М. -С. 1982. -С. 159.

Yodgorlikning genezisi masalasi ham munozaralidir. Masalaning murakkabligiga qaramasdan, O'.I. Islomov uning ildizlarini mahalliy levallua muste hamda so'nggi paleolit madaniyatlarida, deb hisoblaydi⁷⁴ va uni Toshkent variantiga kiritadi⁷⁵. Hozirda Qo'shilish makoni materiallarini ular juda kam sonli bo'lganligi sababli O'rta Osiyoning boshqa yodgorliklari bilan taqqoslashning imkoni yo'q⁷⁶ va uning genezisi masalasini ko'tarib chiqishga asos yo'q deb hisoblaymiz.

⁷⁴ Исламов У.И. Стоянка Кушилиш \ У истоков древней культуры Ташента. Ташкент. 1982. -С. 90.

⁷⁵ Исламов У.И. К вопросу о локальных вариантах эпохи мезолита и неолита Узбекистана\ ИММКУ 11. 1974а. -С. 30. Исламов У.И. К выделению локальных вариантов мезолита Узбекистана \ ИМКУ. 12. Ташкент. 1975б. -С. 29.

⁷⁶ Коробкова Г.Ф. Традиции и инновации в культурах мезолита и неолита Бактрии \ Древнейшие культуры Бактрии. Тезисы сов-французского симпозиума. Душанбе. 1982. -С. 159.

II Bob. Toshkent vohasining ibtidoiy qoyatosh suratlari

O'zbekiston hududlari qoyatosh suratlarga boy va ular mazmuni jihatidan turli-tumandir. Hozirda yurtimizning tog'li va tog'oldi hududlaridan 150 dan ziyod qoyatosh san'atiga oid yodgorliklar topib o'rganilgan. Ularning sanasi mezolit davridan o'rta asrlargacha bo'lgan davrlarga oid. O'zbekistonning petrogliflari (qoyatosh suratlari) asosan uning Shimoli-Sharqiy (Toshkent vohasi, Jizzax tumani va Farg'ona vodiysining g'arbiy qismi), Markaziy hamda Shimoli-Sharqiy (Markaziy Qizilqum) qismlarida to'plangan. G'arbiy Tiyonshondagi (Toshkent vohasi) Xo'jakent va Qoraqiyasoydan topilgan qoyatosh suratlari to'plamlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ushbu yodgorliklar anchadan buyon tadqiq qilinib kelinishiga qaramasdan, anchayin kam o'rganilgan yodgorliklardan bo'lib qolmoqda (17-rasm).

G'arbiy Tiyonshon vodiysidagi Chirchiq vohasidan Xo'jakent, Oqtosh kabi paleolit davri yodgorliklari va ulardan ular yaqinida bronza hamda o'rta asrlarga oid yodgorliklar aniqlangan. Bu yerda tadqiqotlar 1960 yillarda boshlangan va qoyatosh suratlari o'sha yillardayoq aniqlangan. Xo'jakent va Qoraqiyasoy suratlarini sinchiklab o'rganish ishlari 1979-1983 yillarda M.M. Xo'janazarov tomonidan amalshga oshirilgan⁷⁷. Bu yerdagi qoyatosh suratlarini tadqiq qilish umumiy qabul qilingan uslublar asosida o'rganildi. Ma'lumki, qoyatosh suratlarini madaniy-tarixiy obyekt sifatida o'rganish uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi: suratlar dastavval ustiga kalka qog'oz qo'yilib, qalam bilan ko'chirib olinadi; so'ngra ularga tavsif beriladi, tasniflanadi va sanasi aniqlanadi, etnomadaniy hamda mazmuni jihatidan talqin qilinadi.

O'zbekistonning tog'li va tog'oldi rayonlari ibtidoiy odamlar yashashi uchun barcha tabiiy sharoitlarga ega bo'lgan. Bu haqda ushbu hududlardan topilgan ko'plab yodgorliklar guvohlik beradi, qoyatosh suratlari ham shu jumladan. O'zbekistonning Shimoli-Sharqiy qismi g'arbiy Tiyonshon hamda Pomir-Oloy

⁷⁷ Хужаназаров М. Наскальные изображения Северо-Восточного Узбекистана. Дисс. На соиск. Ученый степени к.и.н. 1985. – С. 16.

tog'lari bilan o'ralgan. Bu hududlarda G'arbiy Tiyonshondan yirik Qarjontov, Ugam, Pskem, Chotqol va Qurama tizmalari ajralib chiqqan. Ushbu tog'lar devon hamda karbon davri ohaktoshlar, slaneslar, qayroqtoshlar, granitlar hamda konglomeratlardan tarkib topgan. Bu yerdagi kulrangli ohaktoshlarning yuzasi qo'pol, slanes va qayroqtoshlar esa aksincha, tekis yuzalarga ega. Bu rayondagi qoyali tizmalar orasidan Chirchiq, Ohangaron, Beldersoy, Oqsoqota, Oqbuloq, Ugam, Pskem, Ko'ksuv, Chotqol va boshqa daryolar oqib tushadi (18-rasm).

G'arbiy Tiyonshonning iqlim sharoitlari ham o'ziga xosdir. Tog'larda yoz saluin, qishi esa ayozli va ko'plab yog'ingarchiliklar bilan o'tadi⁷⁸. Bu tog'larda tog' echkilari, arxarlar, qor qoplonlari, qo'ng'ir ayiq, to'ng'iz, tulki, bo'ri, shoqol va ko'plab qushlar yashaydi.

G'arbiy Tiyonshonning, Xo'jakent va Qoraqiyasoy suratlari joylashgan hududlarning fizik-geografik sharoitlari qadimdan ovchilik, chorvachilik kabi xo'jaliklarni yuritish uchun qulay bo'lgan.

2. 1 §. Xo'jakent

Yodgorlik Toshkent shahridan 70 km shimoli-sharqda joylashgan.⁷⁹ Bu yerdagi qoyatosh rasmlari tushirilgan qoya Chotqol tizmasining g'arbiy etaklarida, Chirchiq daryosining chap sohilida joylashgan. Bu yerdan yaylovlar va bog'larga boy Chirchiq vohasi boshlanadi. Qoya yaqinida buloq mavjud bo'lib, u hozirgacha muqaddas hisoblanadi. O'zining xushmanzaraligi bilan ajralib turadigan ushbu joy qadimgi odamlarning diqqatini tortmay qolmagan.

Xo'jakent suratlari balandligi 16,5 m va eni 18 m bo'lgan tik ohaktosh qoyaga bitilgan. Qoyaning yuzasi shimoli-g'arbgga, Chirchiq daryosiga qaragan. Suratlarda qoyaning pastki odam bo'yi yetadigan balandligida joylashadi (19-rasm). Qoyaning yuzasi tabiiy ta'sirlar oqibatida yemirilgan va aftidan, suratlarning ko'pchiligi yemirilib, o'chib ketgan. Bu haqda rasmlarning bir-biriga juda yaqin va ba'zan, ustma-ust joylashganligi guvohlik beradi. Bu yerda yorqin va aniq

⁷⁸ Колбицев А. Ташкентский оазис. Ташкент. Изд-во Узбекистан. 1983. -С. 6.

⁷⁹ Алпысбаев Х. Новые наскальные изображения Бостандыкского района. ТИИАЭ АН Каз ССР. 1956. -С. 182-188

ko'rinadigan rasmlar bilan birga xiralashgan suratlar ham mavjud. Aftidan, ushbu rasmlar turli davrlarda chizilgan. Rasmlardagi hayvonlar tanasining yo'nalishi, shakli va hajmi hamda ularning cho'kichlanish chuqurligining turlichadir. Bu holat ayniqsa, echkilar tasvirlarida aniq aks etadi. Xo'jakentda 90 ta alohida surat va manzaralar aniqlangan. Rasmlarning asosiy mazmuni tog' echkilari bo'lib, arxarlar (tog' qo'yi), kiyiklar, otlar, ayrim ho'kizlar, itlar va noaniq belgilar ham uchraydi (20-rasm). Xo'jakent rasmlarida odam suratlari ham bir-necha bor takrorlanadi. Suratlarning ko'pchiligi tugallanmay qolgan va bu ularni talqin qilishni murakkablashtiradi.

Xo'jakent suratlarining xarakterli xususiyatlaridan biri undani qoyalarda echki podalarining kelishi va ularning ikki tarafga ajralib ketishi tasvirlangan rasmlardir. Ushbu echki podalarining old qismida yosh va kichik echkilar tasvirlari tushirilgan. Bunday rasmlar manzarasi Xo'jakentda 6 martotaba takrorlanadi.

Xo'jakentdagi arxarlar asosan, yugurayotgan holatda, shoxlari buralgan, kalta va baquvvat oyoqlari bilan tasvirlangan (21-rasm). Bu yerdagi ikki dona bir-biriga qaratib ishlangan, tanasi baland ko'tarilgan, boshlari orqa tarafga qayrilgan, oyoqlari uzun va dumlari kalta kiyiklarning tasviri ham qiziqarlidir.

Qoyalardagi otlar esa, kalta va baquvvat tanali, bo'yinlari qayrilgan, boshlari kichik hamda kalta dumli qilib tasvirlangan.

Xo'jakent suratlarida bir dona ho'kiz va ikkita itlarning suratlari aniqlangan.

Xo'jakent qoyalaridagi uchta ayollarning tasvirlari diqqatga sazovordir. Ular bir qatorda oldinga qaragan holatda tasvirlangan. O'ng tomondagi ikkita ayolning yelkalari bir-biriga tutashgan holatda. Ayollarning shakli yumaloq, qo'l va oyoqlari yo'q, faqat bitta ayolning bitta qo'li tasvirlangan (22-rasm).

Ayrim joylarda ushbu suratlar echkilar, odam va noaniq rasmlar bilan qoplangan. O'rta va Qozog'istonda bunday suratlarining o'xshashi topilmagan.

Qoyalardagi suratlar orasida yirik echki va odamning rasmi diqqatni tortadi. Echki chap tomonga qaragan holda, tanasi yirik, yelkasi qayrilgan, yumaloq boshi pastga qaragan va kichik burama dumi bilan tasvirlangan. Uning oyoqlari

bog'langan va orqa tarafida yumaloq boshida cho'qqili bosh kiyim kiygan odam tasviri tushirilgan. Bu odam tasviri harakat holatida, qo'llari belida va oyoqlari yurayotgan shaklda ishlangan (23-rasm).

Xo'jakent suratlarida belgilarning ham tasvirlari tushirilgan (rasm.). Qoyalardagi belgilar: echkilar-49 ta, arxar-3 ta, kiyik-3 ta, ot-3 ta, ho'kiz-1 ta, it -2 ta, odam-6 ta, belgilar-2 ta, noaniq suratlar-17 tani tashkil qiladi (24-rasm).

2. 2 §. Qoraqiyasoy

Qoraqiya darasi Qorjontovning Janubiy etaklarida joylashgan. Daraning tubidan irmoq oqib o'tadi va Chichiq daryosiga quyiladi. Dara xushmanzarali va uning chuqurligi 50 m dan oshadi. Bu yerdagi irmoqning qirg'oqlari to'q jigarrangli granit, ohaktosh, qayroqtosh hamda konglomerat qoya toshlardan iboratdir. Qoraqiyasoyning har ikkala qirg'og'idagi qoyalarga suratlar bitilgan. Ammo ushbu suratlarining asosiy qismi soyning chap sohili yuqori qismida, G'azalkent shahridan 20-25 km shimolroqda joylashgan⁸⁰. Qoraqiyasoy suratlari Xo'jakentdan 25 km shimoli-sharqda joylashgan bo'lib, Xo'jakentdagidek turli qoyalar va tosh bo'laklariga emas, balki bitta yirik qoyaga chizilganligi bilan ajralib turadi.

Qoraqiyasoyning yuqori qismidan 90 ta qoyaga chizilgan, 1015 ta alohida rasmlar va manzaralar tasviri aniqlangan. Yakka tartibda chizilgan suratlari o'ziga xos. Bular avvalo hayvonlar, jumladan, echkilar, arxarlar, tuyalar, otlar, bo'rilar hamda ho'kizlarning rasmlaridir. Shuningdek, bu yerda ko'plab otliq va piyoda odamlar tasvirlari ham uchraydi. Tasvirlar orasida noaniqlari ham ko'plab topiladi. Manzarali tasvirlar yanada turli-tumandir. Kompozitsiyasiga ko'ra ularni oddiy va murakkab rasmlarga ajratish mumkin. Oddiy manzaralarga tuyalarni haydab borayotgan odamlar, otliq jangchilar va kamonchilarni hamda juft hayvonlarni kiritish mumkin. Murakkab tasvirlarga ov jarayonlari, karvonlarning ketishi, raqslar va h.k. larni kiritish mumkin (25-rasm). Ular 5 ta qoyalarda aks ettirilgan.

⁸⁰ Агзамходжаев Т. Наскальные изображения в Бостагдиксокм районе Ташкентской области. Общественные работы АН Уз ССР. 1960. С. 20-82.

Qoraqiyasoydagi suratlar orasida xarakterlisi echkilar rasmlari hisoblanadi. Ularning hajmi, tanasi va shoxlarining shakli turlichaligi bilan ajralib turadi. Ko'pincha echkilar alohida chizilgan. Guruhlashgan suratlar sifatida ular ov manzaralarida va poda holatida tasvirlangan.

Yodgorlikda kiyiklar suratlari 4 marta uchraydi. Ular daraxt shoxlari yoki archa shaklida chizilgan shoxlarga ega va umuman, echkilar singari uslublar yordamida aks ettirilgan.

Qoyalarga bitilgan tuyalar yon tomonidan bir qator, bo'yinlari uzun, boshlari kichik va ikki o'rkachli qilib tasvirlangan. Odamlar bilan tuyalarning yurib borayotgan manzaralari 4 marta tasvirlangan. Itlar esa, ov manzaralarida qatnashayotgan holda tasvirlanadi (26-rasm).

Qoraqiyasoy qoyalarida eng ko'p otlar tasvirlangan. Ular aniq aks ettirilgan boshlari, oyoqlari va dumlari bilan o'yib ishlangan. Otlar tasvirlarining ayrimlari yelkalarida ikkita bo'rtmalari ham mavjud. Ko'pgina otlar o'ta nafis chizilgan. Ushbu otlar alohida, yurayotgan holda va odam mingan va aravalar qo'shilgan holatlarda tasvirlangan. Yodgorlikdan beshta aravali otlar tasvirlari aniqlangan (27-rasm.). Ushbu aravalarning har biri 4 tadan spiska ega bo'lgan yumaloq kalesalardan tarkib topgan va yormasi mavjud. Yodgorlikdagi 18-raqamli qoyada otlarga qo'shilgan arava va uni go'yoki itarib borayotgan odam tasviri aks ettirilgan (28-rasm).

Yodgorlikning 35-qoyasida ham aravalarning tasvirlari o'yib ishlangan. 18-qoyadan farqli o'laroq bu yerda ikkinchi otlar tasvirlari saqlanmagan. Suratdagi aravaning kolesalari ham qattiq buzilgan. Aravadan yuqoriroqda echki va noaniq suratlar tasvirlangan. Suratning pastki qismida echkini otayotgan kamonchi tasviri bitilgan. Kamonchi odamning tasviri unchalik aniq emas va uning qarshisida yirtqich hayvon tasviri tasvirlangan bo'lib. U uch oyoqda turibdi.

Qoraqiyasoy suratlari orasida ko'plab belgilar uchraydi. Ular asosan, konturli yoki chiziqli doira shakllari bo'lib, ushbu doiralarning ayrimlari o'rtasida nuqtalari mavjud. Shuningdek, yodgorlikda tuxumsimon, yumaloq, to'rtburchak hamda

uchburchak beogilar ham uchraydi. Zigzagsimon belgilar ko'plab takrorlanadi (30-rasm).

Qoraqiyasoy suratlarida hayvonlardan tashqari odamlar ham katta o'rin tutadi. Odamlar alohida va kompozision manzaralarda ham uraydi. Odatda, ular echki yoki arxarlarga kamondan o'q uzayotgan bitta yoki bir nechta ovchilar sifatida tasvirlangan. Ba'zan, odamlar yovvoyi hayvonni quvlayotgan yoki uni qurshab olgan hollarda ham tasvirlangan. Ushbu suratlar orasida raqsga tushayotgan odamlar tasviri katta qiziqish uyg'otadi. Ular bir-birlarining qo'llarini ushlagan va tizzalari bukilgan holda tasvirlangan. Ba'zan jang manzaralari ham aks ettirilgan. Ular ko'pincha kamondan otishayotgan odamlar shaklida tasvirlangan (29-rasm). Yodgorlikda ikki marta ilonlar tasvirlari ham uchraydi.

Qoraqiyasoy suratlarida nafaqat bu yerda istiqomat qilgan odamlarning hayotiy manzaralari, balki fallas kulti ham aks ettirilgan. Ayrim odamlar tasvirida bu yorqin ifoda ettirilgan va ba'zan erotik rasmlar ham uchraydi.

Xo'jakent rasmlaridan farqli o'laroq, Qoraqiyasoy suratlari ko'proq guruhlashgan va turli xildaligidir. Bundan tashqari, Qoraqiyasoyda diniy manzaralar, osmon jinslari tasviri, quyosh ramzlari uchraydi. Shuningdek, yodgorlikda hayvonlar suratlari aniq va to'laroq aks ettirilgan. Aftidan. Ushbu rasmlar uzoq yuz yilliklar davomida qoyalarga o'yib chizilgan. Eng qadimgi petrogliflar yaxshi saqlanmagan va shuning uchun ularda hayvon yoki odam tasvirlanganligini aniqlash mushkul. Ayrim tasvirlar qo'pol va ehtiyotsizlik bilan ishlangan. Ammo, ko'pchilik suratlar yuqori mahorat bilan yuqori darajada ishlov berilgan va ularni patinasiga (rasm yuzasini qoplagan mog'or) ko'ra aniqlash mumkin. Yodgorlikdagi keyingi davrlarda chizilgan rasmlar ancha yorqin ko'rinishlarga ega. Ayrim qoyalarda qadimgi rasmlar yonidan yoki ustidan yangi rasmlar ham chizib ketilgan. Qadimgi rasmlarning asosiy qismi soya usulida o'yib ishlangan. Biroq, ular orasida sxematik-chiziqli usulda ishlanganlari ham mavjud. Suratlarining barchasi o'yib ishlangan bo'lib, ular ba'zan mayda nuqtalar va gohida yirik nuqtali o'yishlar yordamida ishlangan.

Agar Xo'jakentda rasmlar yirik ko'rinishlarda o'yilgan bo'lsa, Qoraqiyasoyda hayvonlar tasviri kichik hajmdaligi bilan ajralib turadi (5-40 sm gacha). Har ikkala yojgorlik qoyalaridagi suratlarning joylashuvi sistemasiz holatda. Bir rasmning ustiga ikkinchi suratni o'yib ishlangan holatlar ko'p uchraydi. Echkilar, odamlar, tuyalar va itlarning rasmlari ancha qadimgi suratlarning ustiga ishlangan. Qadimgi sura'atlardan farqli o'laroq ushbu yangi rasmlar aniqlikga ega emas. Qoraqiyasoy yodgorligida saklar davri rasmlari o'zining uslubi va mukammalligi bilan ajralib turadi. Ular asosan soya va kontur usullarida ishlangan, o'yish texnikasi mayda nuqtali yoki kesma shaklida.

Jadval №1. Qoraqiyasoy va Xo'jakent suratlarning tarkibi

<i>Asosiy manzaralar</i>	<i>Qoraqiyasoy</i>	<i>Xo'jakent</i>
<i>odam</i>	<i>10</i>	<i>6</i>
<i>Piyoda kamonchi</i>	<i>10</i>	
<i>Qo'li yoyilgan odam</i>	<i>17</i>	
<i>Jinsi ko'rsatilgan odam</i>	<i>15</i>	
<i>Kamonchilar ishtirokidagi ov manzaralari</i>		
<i>Piyoda kamonchilar jangi</i>	<i>4</i>	
<i>Tuyalar karvonining harakati</i>	<i>4</i>	
<i>Ho'kiz ovlash manzarasi</i>		
<i>Raqs manzarasi</i>	<i>10</i>	
<i>Tuyadagi odam</i>	<i>10</i>	
<i>Otliq odam</i>	<i>8</i>	
<i>Echkilar podasi</i>	<i>10</i>	
<i>Aravalar</i>	<i>5</i>	
<i>Echkilar</i>	<i>475</i>	<i>49</i>
<i>Tuyalar</i>	<i>12</i>	
<i>Otlar</i>	<i>10</i>	<i>3</i>
<i>Itlar</i>	<i>30</i>	<i>2</i>

<i>Arxarlar</i>	<i>15</i>	<i>3</i>
<i>Kiyiklar</i>	<i>4</i>	<i>3</i>
<i>Ho'kizlar</i>	<i>7</i>	<i>1</i>
<i>Bo'rilar</i>	<i>4</i>	
<i>Ilonlar</i>	<i>2</i>	
<i>Yirtqichlar</i>	<i>5</i>	
<i>Jami:</i>	<i>667</i>	<i>67</i>

Xo'jakent va Qoraqiyasoy suratlari tematik jihatdan juda boydir. Ularni ikkita katta guruhga: na'munalar va belgilarga ajratish mumkin. Shular bilan birga ko'p sonli noaniq suratlar guruhi ham mavjud.

Birinchi guruhga oid manzaralarning o'qilishi oson kechadi. Ularga hayvonlar, odamlarning o'zlari hamda hayvon yoki odam qiyofasida chizilgan fantastik maxluqotlarning va predmetlarning tasvirlarini kiritish mumkin⁸¹. Ikkinchi guruhga yengil o'qiladigan, biroq, na hayvonot olamida va na predmetlar yoki fantastik mavjudotlar orasida o'xshashi yo'q suratlar kiradi⁸².

Toshkent vohasida tadqiq qilingan suratlar orasida asosiysi odamlar va hayvonlarning rasmlarini tashkil qiladi. Bunda odamlarning suratlari hayvonlarnikiga nisbatan kam uchraydi. Obrazlarining xarakteriga ko'ra ular turlichadir: jinsi aniq ko'rsatilgan ayollar suratlari, krestitsimon va sxematik belgilar hamda qirra burunli, bosh kiyimlari uchli otliklar va kamonchilar suratlari shular jumlasidandir. Odamlarning suratlari ko'proq Qoraqiyasoy yodgorligidan topilgan. Bu yerda odamlar raqsga tushayotgan va ov qilayotgan hollarda tasvirlangan. Xo'jakent suratlarida ham ba'zan odam tasvirlari uchraydi. Biroq Qoraqiyasoydagi otliqlar tasviri Xo'jakentda umuman uchramaydi.

⁸¹ Шер Я.А. Колесницы саймалиташа. По следам памятников истории культуры Киргистана. 1980. С. 48;

⁸² Ўша адабиёт. 1980. Б. 49.

Echkilar tasviri har ikkala yodgorlikda ham eng ko'p tasvirlangan hayvonlar hisoblanadi. Echkilar ko'pincha yakka holda tasvirlangan. Ko'pchilik echkilar esa, ov manzaralarida va poda bo'lib ketayotgan hollarda aks ettirilgan.

Qoplon va bo'ri kabi yirtqichlarning tasvirlari esa, Qoraqiyasoyda uchraydi va Xo'jakentda umuman uchramaydi. Otlarning suratlari Xo'jakent qoyalarida anchayin aniq qilib tasvirlangan, Qoraqiyasoyda esa ular sxematik ko'rinishda aks ettirilgan. Qadimgi rassomlar kiyiklar tasvirini har ikkala yodgorlikda ham qoyalarga o'yib ishlaganlar. Itlar obrazi ko'proq Qoraqiyasoy uchun xarakterlidir. Jadvalda ko'rsatilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra Xo'jakent va Qoraqiyasoy yodgorliklari o'rtasida o'xshashliklar bilan birga ayrim tafovutlar ham mavjudligini ko'rsatadi. Otlar, echkilar, kiyiklar, tuyalar va itlar suratlari har ikkala yodgorlik uchun umumiy hisoblanadi. Shuningdek, umumiy syujetlarga qopqonlar, xanjarlar, odamlarning bosh kiyimlari, zigzagsimon chiziqlar va samo jismlarini ifoda etuvchi belgilarni kiritish mumkin. Bundan tashqari, har ikkala yodgorlikda ham oddiy va murakkab o'q-yoylar tasvirlari uchraydi. Yodgorliklardagi murakkab tasvirlar qatoriga ov manzaralarini kiritish mumkin. Ushbu yodgorliklarning tafovutlariga kesak, Qoraqiyasoy uchun aravalar, samoviy belgilar, tuyalar karvoni, tog' echkilariga ov qilish hamda raqs manzaralari xarakterlidir. Xo'jakent uchun esa, ayollarning hamda echkilar podasining yurib borayotgan tasvirlari o'ziga xosdir.

O'rganilgan qoyatosh suratlarining yoshini aniqlash arxeologiya­ning eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Qoyatosh suratlarini sanalash asosan manzaralar mazmuni va ishlanish uslublarini tahlil qilish hamda ularni boshqa o'xshash yodgorliklar bilan qiyosiy o'rganishga tayanadi. Shuningdek, etografik ma'lumotlar tahlil qilinadi va ushbu rasmlarning ishlanish texnikasi o'rganiladi.

Xo'jakent suratlari Gobuston qoyatosh rasmlariga, Janubiy Turkmaniston, Kavkaz orti, Yaqin sharq, Hindiston kabi o'lkalardan topilgan antropomorf haykalchalarga o'xshashligini hisobga olib nisbatan davrini aytish mumkin. Ularning sanasi er.av. 4 va 3 ming yilliklarga oiddir. Shuningdek, Xo'jakent

rasmlarini sanalashda bir ayol kishining qo'lidagi oddiy o'q-yoyning tasvirini hisobga olish zarur. Ta'kidlash joizki, oddiy o'q-yoy tasviri o'zining ishlanish texnikasi va mog'or qoplaganligi bilan uni ushlab turgan ayolning tasviridan farq qiladi. Biroq, shunday bo'lsada, ushbu rasm yagona kompleksni tashkil etadi. Bu hol ayolning tasviri oddiy o'q-yoy tasviri bilan bir vaqtda ishlanganligini ko'rsatadi. Ammo, oddiy o'q-yoyning sanasi borasida aniq bir gap ayish qiyin, negaki, u mezolit davridan boshlab keyingi uzoq vaqt mobaynida foydalanilgan⁸³. Shu munosabat bilan murakkab o'q-yoyning paydo bo'lish davrini aniqlash muhimdir. Ayrim arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyo dashtlarida murakkab o'q-yoy er.av. 8-7 asrlarda keng tarqala boshlagan⁸⁴. Ammo, uning anchayin ertaroq paydo bo'lganligi haqida ham ma'lumotlar bor. Bunga Baykalbo'yi neolit davri yodgorliklaridan topilgan er.av. 3 ming yilliklarga oid o'q-yoyni misol keltirish mumkin⁸⁵. Bundan tashqari, aynan shu davrda Eronda murakkab o'q-yoy ham ma'lum bo'lgan. Masalan, Suzadan topilgan silindr shaklidagi tamg'ada murakkab o'q-yoy yordamida yovvoyi hayvonlarni ov qilish manzarasi topilgan. Bu yerda jangchilarning murakkab o'q-yoy yordamida urush qilayotgan manzaralari ham topilgan. Ushbu tamg'a va uning ichiga tushirilgan rasmlari bilan er.av. 3 ming yilliklar yuilan sanalanadi⁸⁶. Arxeologik materiallarga ko'ra O'rta Osiyoda yashagan qadimgi qabilalar alohida emas, balki Eron, Hindiston va Mesopotamiya bilan mustahkam madaniy aloqalarda yashaganliklaridan guvohlik beradi⁸⁷. Yuqorida keltirilgan dalillarning barchasi O'rta Osiyoda murakkab o'q-yoyning paydo bo'lishini er.av. 8-7 asrlarga oidligini ko'rsatadi⁸⁸. U holda, Xo'jakentdagi qo'liga oddiy o'q-yoy ushlab turgan ayolning tasviri ancha qadimgi davrlarga oid deb hisoblash mumkin. Demak, umuman,

⁸³ Окладников А.П. Петроглифы Ангара. М-Л 196. С. 210-229

⁸⁴ Хазанов А.М. Сложные луки Евразийских степей и Ирана в скифо-сарматское время. МК народов Средней Азии и Казахстана. М. 1966. -С. 31.

⁸⁵ Кўрсатилган адабиёт. Б. 32.

⁸⁶ Массон М.Е. Средняя Азия и Древний Восток. М-Л. Наука .1964. - С. 213.

⁸⁷ Кўрсатилган адабиёт. -Б. 44-64

⁸⁸ Кабиров А. Экспериментальное изучение техники нанесения петроглифов в ущелье Сармычская. ИМКУ. 1974. С. 16.

Xo'jakent suratlarining asosiy qismi murakkab o'q-yoy paydo bo'lgunga qadargi davrlarga oiddir. Xo'jakentdagidek hayvonlar tasvirlari Sarmishsoy qoyalarida ham uchraydi va ular er.av. 3 ming yilliklar bilan sanalanadi.

Shunday qilib, suratlarning mazmuni, uslubi, ishlanish texnikasi, mog'or qoplamasi va boshqa arxeologik materiallar bilan solishtirish asosida Xo'jakent rasmlarini eneolit davri, ya'ni er.av. 4 ming yilliklarning oxiri va 3 ming yilliklarning boshlari bilan sanalash mumkin bo'ladi⁸⁹.

O'rganilgan yodgorliklardagi aravalar tasviri O'rta Osiyo va Qozig'istonda 140 dan ziyod yodgorliklardan topilgan. Bunday suratlar Qoraqiyasoy qoyalaridan 5 ta aravalarining tasvirlari topilgan. Bunday aravalar tasvirari er.av. 2 ming yilliklardan boshlab uchraydi. Shuningdek G'arbiy va Sharqiy Yevropada aravalar tasviri sopol buyumlarda uchraydi. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib Qoraqiyasoyda tasvirlangan aravalarni er.av. 2 ming yilliklarning ikkinchi yarmi va 1 ming yilliklarning boshlari bilan sanalash mumkin.

Bronza davri rasmlariga ho'kizlarning tasvirlarini ham kiritish mumkin. Ular O'rta Osiyoda bronza davrida keng tarqalgan. Qoraqiyasoy va Xo'jakentdagi ayrim ho'kizlar tasvirlarini ham aynan shu davrga oid deyish mumkin.

Shuningdek, bronza davriga yodgorliklardagi odamlar, itlar, echkilar, yovvoyi hayvonlar, belgilar va boshqa noaniq figuralarni kiritish mumkin.

Ma'lumki dastlabki yog'och diskli aravalar va ularni ho'kizlarga qo'shish Shumer davlatida er.av. 1 ming yilliklarda paydo bo'lgan⁹⁰. Dastlabki aravalar disklari butun va yumaloq shaklli bo'lib, qalin yog'och kundalarni ko'ndalang kesib yasalgan. So'ngra arava disklari ochiq doira shaklida bo'lib, orasiga yog'ochdan 4 ta tayanch cho'plar qo'yib ishlangan. Undan so'ng esa, arava disklari spislar yordamida mustahkamlangan. Savol tug'iladi ushbu arava disklaridagi spislarning soni ularni sanalash belgisi bo'lib xizmat qila oladimi? Adabiyotlarda ushbu belgilarning suratlarni sanalashdagi ahamiyati borasida ko'plab misollar

⁸⁹ Кабиров А. Экспериментальное изучение техники нанесения петроглифов в ущелье Сармычская. ИМКУ. 1974 С. 94.

⁹⁰ Чайлд Гордон. Древнейший Восток в свете новых раскопок. М. 1956. - С. 358.

keltirilgan. Ammo, bunga qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. B.B. Piotrovskiyning yozishicha: “aravalar diskidagi spislarning soni rasmning sxematikasi bilan bog’liq”⁹¹. Ya.A. Sher O’rta va Markaziy Osiyo qoyatoshlaridagi arava disklarini o’rganar ekan: “ehtimol, arxeologik qazishmalardan topilgan aravalar disklaridagi spislar soni ularni sanalash imkonini berar (shunda ham asosiy sanalovchi belgilar emas), biroq, qoyatoshlarga chizilgan disklar spislari to’liq chizilmay qolishi yoki sxematik rasmlar bo’lishidan boshqa narsa emas”, degan edi⁹². Xulosa qilib aytish mumkinki, qoyalardagi arava disklarining spislari soni xronologik ko’rsatgich bo’lishi mumkin, agar faqat boshqa sanalovchi belgilar bilan birga kelsagina.

Qoraqiyasoy suratlarini boshqa unga o’xshash yodgorliklar bilan taqqoslash asosida er. av. 2 ming yillikning oxiri va 1 ming yilliklarning boshlari bilan sanalash mumkin.

Qoraqiyasoy suratlari orasida ho’kizlardan tashqari ayrim echkilarning tasvirlarini ham bronza davri bilan sanalash mumkin. Echkilar uzoq tarixiy davr mobaynida hukm surgan jonivorlar bo’lib, ularni aravalar, ho’kizlar oldida yoki ular bilan birga manzaralarda ishtirok etganlarigina bronza davriga oid deyish mumkin.

Qoraqiyasoy va Xo’jakent qoyalaridagi echkilar suratlari Janubiy O’zbekiston hududlaridan topilgan sopol idishlarga bitilgan rasmlarda o’z o’xshashini topadi⁹³.

Asosan Qoraqiyasoy qoyalariga bitilgan odamlarning suratlari ham juda muhimdir. Ularni ishlanish uslubiga ko’ra ikkiga ajratish mumkin: chiziqsimon sxematik va soya uslubida chizilgan odamlar. Biroq, ushbu ikki xilda ishlangan rasmlarning sanasi bir-biriga yaqin. Bundan tashqari, ushbu yodgorliklarda odamlar surati jang, ov manzaralarida va raqsga tushayotgan holda tasvirlangan. Alohida odam rasmlari juda kam uchraydi. Ov manzaralarida ular oddiy yoki murakkab o’q-yoy bilan birga tasvirlangan. Ular ko’pincha Qoraqiyasoy qoyalarida echkilar yoki yovvoyi hayvonlarga ov qilayotgan holda tasvirlangan.

⁹¹ Пиатровский Б.Б. Ванское царство (Урарту). Изд-во вост. Лит. 1959. С. 152-153.

⁹² Шер Я.А. Петроглифы Средней и Центральной Азии. 1980. С. 201.

⁹³ Аскарлов А.А. Древняя Бактрия. Ташкент. 1977. С. 78.

Ushbu odamlar suratlari orasidan qo'llari yon yoki atrofga ko'tarilshgan va falloslari yorqin qilib chizilganlarini bronza davriga oid deb hisoblash mumkin (Qoraqiyasoy 23 rasm). Shuningdek, aksariyat hollarda odamlar qirra burunli qilib tasvirlangan va bunday odamlar O'rta Osiyoning boshqa bronza davriga oid qoyatosh yodgorliklarida ko'plab uchraydi⁹⁴.

O'rganilayotgan yodgorliklardagi marosimiy raqsga tushayotgan odamlarning va ularni o'rab turgan turli hayvonlarning suratlari butun dunyoning bronza davri materiallari orasida keng tarqalgan. Shundan kelib chiqib, Qoraqiyasoydan topilgan raqsga tushayotgan odamlar tavirlarini ham bronza davri bilan sanalash mukmin.

Shunday qilib, Xo'jakent rasmlarining asosiy qismi hamda Qoraqiyasoy suratlarning ayrimlari eneolit davriga, Qoraqiyasoy rasmlarining esa asosiy qismi va Xo'jakent tasvirlarining ayrimlarini bronza davrlariga oid deyish mumkin.

⁹⁴ Формозов Наскальные изображения Зарауткамара. СА №4. 1966. - С. 109.

III Bob. Toshkent vohasi ibtidoiy davr yodgorliklarining madaniy-davriy talqini. Ibtidoiy odamlarning jismoniy tiplari.

Gominidlarning eng qadimgilari - Avstralopiteklar «insoniyatning beshigi», deb ataladigan Afrika qit'asida paydo bo'lgan. Yaqin kunlargacha ularning vatani Sharqiy Afrika hisoblanardi. Biroq Chad hududlaridan topilgan va 7 mln. yillar bilan sanalangan yangi topilmalar qadimgi Avstralopitekklarning dastlab Markaziy Afrika hududlaridan kelib chiqqanligini ko'rsatmoqda. Avstralopitekklarning ba'zi turlari er. av. 1 mln. yillargacha yashaganlar.

Gominidlarning navbatdagi tipi – xomo xabilislar ham Afrikada bundan 2,5 mln. yillar muqaddam paydo bo'lgan. Aynan ular dastlabki mehnat qurollarini yasagan odamning o'tmishdoshlari hisoblanadi. Yuqorida tilga olingan dastlabki gominidlarning har ikkala tiplari ham Afrika qit'asini tark etmaganlar.

Mutaxassislarning fikricha, bundan 2 mln. yillar ilgari, yana o'sha eski dunyoda gominidlarning yangi fizik tipi – xomo ergasterlar paydo bo'lib, ushbu tip birinchi marta Yaqin Sharq orqali Yevroosiyo materigiga ilk qadam qo'ygan o'tmishdoshimiz hisoblanadi. Uning qoldiqlari Gruziyaning Dmanissi degan joyidan topilgan va uning davriy sanasi 1,81 mln. yillar bilan sanalangan. Bu hozirgacha Yevrosiyo materigida ma'lum bo'lgan eng qadimgi topilmadir.

Bundan 1,5 mln. yillar muqaddam gominidlarning yana bir yangi fizik tipi – xomo yerektuslar Afrika va Yevroosiyoda keng tarqalgan. Yevrosiyoda ularning eng qadimgi qoldiqlari 1 mln. yillar atrofida sanalanib, to 100 000 yillargacha yashab kelgan. Xomo yerektuslar qoldiqlarining fanda eng mashhurlariga Xitoyda Sinantrop, Yava orolida Pitekanthrop, Ozarbayjondagi Azix g'ori topilmalari, Fransiyadagi Tutavel odami qoldiqlari, Ispaniyadagi Atapurka, Italiyadagi Izerniya, Gresiyadagi Petralona materiallari va hakoazolarni kiritish mumkin.

Toshkent vohasi ilk paleolit davridanoq ibtidoiy odamlar, ya'ni xomo yerektuslar tomonidan o'zlashtirilgan. Bunga misol qilib, Ko'lbuloqning quyi

qatlamlari, Jarsoy va Qizilolmasoy 2 yodgorligining quyi qatlami materiallarini keltirish mumkin. Ko'lbuloqning quyi qatlamlari materiallari mutaxassislar tomonidan texnik-tipologik usullar bilan 500 ming yillar bilan sanalangan. Uning industriyasida tishsimon retushli va o'yib-kertib ishlangan qurollar hamda dag'al ishlangan bifaslar seriyalari topilgan. Shunga ko'ra, Ko'lbuloqning ilk paleolit davriga oid qatlamlari industriyasini mikok madaniyatiga xos deyish mumkin. Ma'lumki, mikok madaniyati ilk paleolitning o'ziga xos madaniyatlaridan biri bo'lib, G'arbiy Yevropa hududlarida keng tarqalgan va unda Ko'lbuloqning quyi qatlamlaridagi singari tishsimon retushli va o'yib-kertib ishlangan tosh qurollar bilan birgalikda qo'pol ishlangan bifaslar ham uchraydi. Ushbu mikok madaniyati keyinchalik o'rta paleolitning tishsimon mute madaniyatiga taraqqiy qilib, o'sib o'tadi.

Demak, aytish mumkinki, agar Ko'lbuloqning o'rta paleolitga oid madaniy qatlamlari industriyasi tishsimon muste madaniyatiga xosligidan kelib chiqadigan bo'lsak, u holda yodgorlikda ilk paleolit davrining o'rtalaridan boshlab avtoxton taraqqiy qilish jarayonlari sodir bo'lgan. Aniqrog'i, Ko'lbuloqqa bundan 500 ming yillar burun tashrif buyurgan va mikok madaniyati sohiblari bo'lgan xomo yerektuslar asta-sekinlik bilan o'rta paleolit davriga kelib (100-40 ming yillar) tishsimon mute madaniyatiga mansub neandertallarga aylanadilar.

Ohangaron vodiysining yana bir yodgorligi Qizilolmasoy 2 ustaxonasining quyi 20 sm lik qatlami esa, Ko'lbuloqning quyi qatlamlari, ya'ni ilk paleolit davri komplekslariga o'xshash tosh buyumlarni berdi. Aytish mumkinki, Ko'lbuloqliklar ilk paleolit davridanoq Qizilolma 2 ustaxonasidan foydalana boshlaganlar. Shuningdek, Qizilolma 2 ning quyi qatlami neogen davri yotqiziqlarining ustida joylashgan va ular singari qizg'ish tusga kirgan. Bu holat ushbu qatlamning nihoyatda qadimiy, ya'ni ilk paleolit davriga oidligini ko'rsatadi. Demak, Qizilolma 2 ustaxonasining quyi qatlami industriyasini ham xuddi Ko'lbuloqdagidek, mikok madaniyatiga oid deyish mumkin.

Ko'lbuloq yaqinida joylashgan ilk paleolit davriga oid yana bir yodgorlik – Jarsoy 2 materiallari esa, yuqorida tilga olingan yodgorliklardan tubdan farq qiladi. Yodgorlikning tosh industriyasi texnik-tipologik jihatdan 300 ming yillar bilan sanalangan. Bu yerdan qo'pol tosh boltalar, qirg'ichlar bilan birgalikda ko'p sonli levallua texnikasi yordamida ishlangan buyumlar topilgan. Bu jihatdan ushbu texnokompleksning O'rta Osiyoda o'xshashi yo'qdir. Uni ilk paleolitning levallua-ashel madaniyatiga kiritish mumkin.

Toshkent vohasining o'rta paleolit davri yodgorliklari qatoriga Ko'lbuloqning o'rta qatlamlari, Jarsoy, Obiraxmat g'orining o'rta paleolitga oid qatlamlari hamda G'ishtsoy materallarini kiritish mumkin. Bulardan Jarsoy materiallari levallua-muste, Ko'lbuloqning o'rta qatlamlari va G'ishtsoy materiallari tishsimon-muste, Obiraxmatning o'rta paleolitga oid materiallari esa Obiraxmat madaniyatlariga kiritilgan.

Aytish mumkinki, Toshkent vohasi o'rta paleolit davrida kamida uchta turli xil madaniyat sohiblari bo'lgan neandertal tipidagi ibtidoiy odamlar tomonidan o'zlashtirilgan va istiqomat qilingan.

Shunday qilib, Toshkent vohasi hududlari xomo erektuslar tomonidan ilk bor o'zlashtirilgan. So'ngra yurtimizga G'arbiy Yevropada paydo bo'lgan neandertallar kirib kelganlar. Ma'lumki, neandertal tipidagi odamlar G'arbiy Yevropa xomo yerektuslaridan paydo bo'lganlar va keyinchalik butun dunyoga tarqalganlar. Adabiyotlarda bu tipdagi gominidlar bundan 100 ming yillar muqaddam paydo bo'lgan va O'rta Osiyo hududlarini bundan 50-60 ming yillar burun egallaganlar. Teshiktosh bolasining Yevropa neandertallari qatoriga kiritilishi buning yorqin misoli bo'la oladi. Demak, O'zbekiston hududlari so'nggi neandertallar tomonidan egallangan. Shuning uchun biz mamlakatimizdagi o'rta paleolit davriga oid materiallarni kuzatar ekanmiz, ularda so'nggi muste davriga xos elementlardan: plastinalar va ba'zan mikroplastinalar, mikroqirg'ichchalar va hakoza belgilarni kuzatamiz. Shuni ta'kidlash joizki, yaqin vaqtlargacha neandertallarni zamonaviy odamning

ajdodlari, deb kelgan tadqiqotchilar mavjud edi. Lekin keyingi yillarda Yevropa olimlari olib borgan tadqiqotlarda bu tipdagi gominidlar insoniyat taraqqiyotidagi chetlashgan shaxobcha bo'lib, ular bizning ajdodlarimiz emasligi aniqlandi. Odamning to'g'ridan -to'g'ri o'tmishdoshi hisoblangan arxaik tipdagi xomo sapiyenslar esa Yaqin Sharqda bundan 100-80 ming yillar muqaddam yashaganligi aniqlangan. Biroq, yurtimizda ularning izlari hanuz topilganicha yo'q. Lekin ular, albatta, sharqni g'arb bilan va janubni shimol bilan bog'lovchi tranzit yo'l ustida joylashgan hozirgi O'zbekiston hududlarini chetlab o'tganliklariga ishonish qiyin. Keyingi arxeologik tadqiqotlar bunday bo'shliqni to'ldiradi deb umid qilish mumkin.

So'nggi paleolit davri Yevropada bundan 35 ming yillar muqaddam, zamonaviy tipdagi odam, ya'ni xomo sapiyens sapiyensning paydo bo'lishi bilan belgilanadi (orinyak yodgorliklari). Toshkent hududlarida paleolitning so'nggi bosqichiga oid yodgorliklar ko'plab topilgan. Ammo, ularning sanasi yuqori paleolit davrining ikkinchi yarmi va oxirlari bilan belgilanadi.

Mezolit davriga oid paleoantropologik topilmalar yurtimiz yodgorliklarida uchramagan. Biroq neolit davriga oid Kaltaminor va Sazag'on madaniyati makonlaridan topilgan qabrlardagi topilmalar yevropoid irqiga mansub. Olingan barcha ma'lumotlar, ibtidoiy davrlarda O'zbekiston hududlarida o'zining kelib chiqishiga ko'ra yevropoid irqiga mansub odamlar yashaganligidan dalolat beradi.

Toshkent vohasidagi o'rta paleolitga oid g'or manzilgohlari, nisbatan yaxshi o'rganilgan bo'lishiga qaramasdan, ularning aksariyat qismida absolyut sanalash ishlari amalga oshirilmagan, faqatgina geologik jihatdangina davrlashtirilgan. Obiraxmat g'ori nisbatan yaxshi o'rganilgan va uning qatlamlaridan bir nechta absolyut sanalar olingan. Bu ma'lumotlar yodgorlikning eng qadimgi sanasi 87 ming yil bilan quyi sanasi esa 36 ming yillar bilan

davrlanadi⁹⁵. Bu makonning yoshi o'rtacha 50 ming qilib belgilangan. Shuning uchun, biz ushbu ilmiy ishda yurtimizda o'rta paleolit davrining boshlanishini, shu paytgacha ta'kidlab kelinganiga qarshi o'laroq, so'nggi neandertallar bilan bog'liq ravishda 60-50 ming yillar muqaddam boshlangan, degan talqinni ilgari suramiz. Negaki, O'zbekistondagi o'rta paleolit davriga oid yodgorliklardan, asosan, neandertal tipidagi odamlarning topilishi va ularning G'arbiy Yevropa hududlaridan Osiyo chegaralariga bundan 60 ming yillar muqaddam yetib kelganliklari haqidagi faktik ma'lumotlarshundan dalolat beradi⁹⁶. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida bu davr yodgorliklarining talaygina ekanligi aniqlandi. Yangi Dodekadim⁹⁷ 1 va 2 so'nggi paleolitga oid yangi yodgorliklar ochildi. Toshkent viloyatidagi Ko'lbuloqning yuqori (I-III) qatlamlari materiallari ham so'nggi paleolitning boshlariga tegishli va u uzluksiz ravishda quyidagi muste davri qatlamlaridan o'sib chiqqan, degan fikr ilgari surilgan edi⁹⁸. Lekin, keyingi tadqiqotlar bu materiallarning so'nggi paleolitning oxirlariga oid ekanligini ko'rsatdi⁹⁹. Qashqadaryodagi Angillak hamda Toshkent viloyatidagi Dodekadim makonlarining industriyasi ham so'nggi paleolitning so'nggi bosqichlariga xos belgilarga ega.

Shunday qilib, Toshkent vohasidagi paleolit davri yodgorliklaridan olingan materillar va ular haqidagi mavjud adabiyotlarni tahliliy tadqiq qilish natijasida ushbu davr xronologiyasi haqida quyidagi xulosaga kelish mumkin.

⁹⁵ Деревянко А.П., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Алимов К, Крвошапкин А.И., Анойкин А.А., Милютин К.И., Сайфуллаев Б.К. Исследования грота Оби Рахмат (Республика Узбекистан) в 1999 г. \\\ Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. ИАЭТ СО РАН. Новосибирск. 1999.-С. 44. Деревянко А.П., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Крвошапкин А.И., Анойкин А.А., Милютин К.И., Сайфуллаев Б.К. Ранний верхний палеолит Узбекистана: Индустрия грота Оби Рахмат (по материалам слоев 2-14) \\\ Археология, этнография и антропология Евразии. 4. (8). Новосибирск. 2001. -С. 76. Деревянко А.П., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Алимов К, Крвошапкин А.И., Анойкин А.А., Милютин К.И., Сайфуллаев Б.К. Новые данные о палеолитических индустриях пещеры Пальтау (Республика Узбекистан) \\\ Проблемы каменного века Средней и Центральной Азии. ИАЭТ СО РАН, Новосибирск. 2002. -С. 25.

⁹⁶ Jobere J. Mousterienne en Euroup. Paris. 2001.-Р. 36.

⁹⁷ Деревянко А.П., Исламов У.И., Кривошапкин А.И. Местонахождения Додекатым на Чирчике. АО. Ташкент. 2006. -С. 23.

⁹⁸ Джуракулов М.Д. Каменный век долины реки Зарафшана \\\ автореф. Дисс. Докт. Ист. Наук. \\\ Самарканд. 1990. -С. 30.

⁹⁹ Касымов М.Р. Палеолит Средней Азии и Южного Казахстана Автореф. Дис-С. Докт. Ист. Наук. Новосибирск. 1990. -С. 35.

Bu yerda ilk paleolit 500 ming yillar muqaddam boshlangan bo'lib, juda uzoq davom etadi. Biroq o'rta paleolit davri hozirgi ma'lumotlarga ko'ra bundan o'rtacha 70-50 ming yillar muqaddam yurtimizga neandertal tipidagi gominidlarning kirib kelishi bilan boshlangan. Odamning navbatdagi tipi - xomo sapiens sapiens esa vatanimiz hududlarini so'nggi paleolit davrida uzlashtirib, shu davrning ikkinchi yarmida keng taraqqiy topgan va aftidan, keyingi mezolit davri madaniyatlarining shakllanishi va taraqqiy qilishi uchun zamin hozirlaganlar.

Mezolit davri yodgorliklari moddiy madaniyat namunalarining guvohlik berishicha, bu davr O'zbekistonda er. av. XI-VII ming yilliklarni qamrab oladi. Ammo dunyo tasnifida o'rta tosh asri eramizdan avvalgi 12 ming yilliklardan boshlanadi. Toshkent hududlari ilk mezolit davridanoq ibtidoiy qabilalar tomonidan o'zlashtirilgan. Eng avvalo yurtimizning shimoliy-sharqiy hududlari, ya'ni Farg'ona (Obishir madaniyati) hamda Toshkent vohalarini (Qo'shilish) o'zlashtirilgan. Keyinchalik, mezolit davrining o'rtalaridan boshlab, Zarafshon daryosi vodiysi Chorboqti makonlari (Sazag'on 1) va Surxondaryo (Ayrtom, Eski Termiz, Machay), Ustyurt va Qizilqum hududlari o'zlashtirilgan.

O'zbekiston xududidagi ilk paleolit davri odamlari ovchilik va termachilik bilan kun kechirganlar. Toshkent vohasidagi yodgorliklar madaniy qatlamlaridan otlar (Qo'tirbuloqda 43 %), tog' echkisi, bug'u, arxar, qoramol va hakozo yovvoyi hayvonlarning suyak qoldiqlari topilgan. Ov qurollari sifatida yog'och tayoqchalar uchlariga o'rnatilgan paykonlar o'ta muhim vazifani o'tagan. Yodgorliklardan ko'plab teriga ishlov berish, go'sht taqsimlashga mo'ljallangan tosh qurollar topilgan. Ibtidoiy guruhlar buloq, daryo va boshqa suv havzalariga yaqin hamda tosh qurollar yasash uchun xom ashyo bor joylarda, shuningdek, mo'tadil iqlimli keng va yorug' g'orlarda istiqomat qilganlar.

Ibtidoiy ajdodlarimizning xo'jalik faoliyati so'nggi paleolit davriga kelib yanada takomillashadi. Biroq, hali bu davrda ham o'zlashtiriluvchi xo'jalik faoliyati hukmron bo'lib qoladi. Odamlar asosan ovchilik va atrofdagi yeyishga

yaroqli o'simliklarni terib istemol qilish bilan shug'ullanadi. Biroq bu davrda ovchilik usullari takomillashadi, uzun va sifatli, o'tkir tig'lar va paykonlar kabi mukammal ov qurollari paydo bo'ladi. Toshga ishlov berish texnikasi takomillashib, yupqa va pichoqsimon plastinalar va mikroplastinalar sindirib olish yo'lga qo'yiladi. Suv bo'ylarida chaylalar qurib yoki g'orlarda uzoq muddat yashay boshlaydilar. Estetik tasavvurlarning paydo bo'lishidan guvohlik beruvchi tabiiy bo'yoqlar, oxralardan foydalanish va chig'anoqlardan ishlangan ayrim taqinchoqlar paydo bo'ladi.

Mezolit davri jamoalarining iqtisodiy hayoti, asosan o'q-yoyning paydo bo'lishi hamda ehtimol, ayrim hayvonlarning xonakilashtirilishi taraqqiyotning yangi pog'onaga ko'tariladi. Bu davrda tosh qurollar yasash o'zining kulminasion rivojlanish darajasiga chiqadi. Mikrolitizm taraqqiy topadi. Yodgorliklardan topilgan tosh va suyak taqinchoqlar bu davrda estetik madaniyatnin o'z davri uchun nisbatan yuqori darajada rivojlanganligidan guvohlik beradi.

Toshkent vohasidan neolit davriga oid yodgorliklar hali topilmagan. Biroq, Xo'jakent va Qoraqiyasoy suratlarining ayrimlari eneolit va bronza davrlariga oid, deb topilgan.

2003 yilda Obiraxmat g'orining 16-madaniy qatlamidan paleoantropologik topilmalar aniqlandi. Ushbu topilmaning muhim ahamiyatlaridan biri shundaki, u o'rta paleolitdan so'ngi paleolit madaniyatiga o'tish jarayonlarini o'zida aks ettirgan keskin davrga oidligidadir (4, 5-rasmlar). Bunday topilmalar dunyoda barmoq bilan sanarli darajada noyobdir. Bundan tashqari, Obiraxmat g'ori industriyasi so'ngi paleolitga o'tish davrini aks ettirganligi tufayli uning 16-qatlamidan olingan paleoantropologik topilmalar ushbu o'tish davridagi odamning tashqi qiyofasini tiklash imkonini beradigan dunyoda yagona ashyoviy dalillar hisoblanadi¹⁰⁰.

¹⁰⁰ Кривошапкин А.И. Грот Обирахмат. ИМКУ №35. 2008. -С. 26.

Topilgan bosh chanog'i va tishlarni o'rganish oqibatida olamshumul ahamiyatga molik natijalar qo'lga kiritildi: obiraxmat odami neandertallar bilan zamonaviy odamlarning omuxta qiyofasini berdi. Uning morfologik xususiyatlari noyob hodisa bo'lib, dunyoda o'xshashi yo'q. Tadqiqotchilar Obiraxmat odamining bunday noyobligini tushuntirishga qiynaladilar. Ushbu topilmalar bir tomondan, zamonaviy tipdagi odamlarning paydo bo'lishi mustaqil multiregional tarzda amalga oshganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, yaqin kunlarga iloji yo'q deb hisoblanib kelingan, neandertallarning zamonaviy tipdagi odamlar bilan chatishganligidan guvohlik beradi.

Paleoantropologik topilma (bir dona yelka suyagi) Ko'lbuloqning 2-madaniy qatlamidan ham topilgan va u zamonaviy tipdagi odamga oidligi aniqlangan.

Shunday qilib, Toshkent vohasi hududlari paleolit davri odamlari tomonidan anchayin zich istiqomat qilingan. Bu o'lkalar dastavval xomo yerektuslar tomonidan o'zlashtirilgan, garchi bu davrga oid yodgorliklarda paleoantropologik topilmalar aniqlanmagan bo'lsada. Toshkent vohasi Yevroosiyaning neandertallar tomonidan zabt etilgan eng sharqiy hudud hisoblanadi.

Ushbu hududlarda yerektuslar, neandertallar va xomo sapiyens sapiyenslar kabi qator gominidlar yashaganlar. Obiraxmat g'ori topilmalari Toshkent vohasini sapiyenizasiya, ya'ni zamonaviy tipdagi odamlar paydo bo'lgan yoki shakllangan markazlardan biri ekanligidan guvohlik beradi.

Xulosa

Toshkent vohasi yer yuzining ibtidoiy davr yodgorliklariga eng boy hududlaridan biridir. Bu yerning paleoekologik sharoitlari va uning bilan bog'liq fauna va floras, xushmanzara tabiati, ishlov berishga yaroqli tosh konlari, sersuvligi hamda g'orlardan iborat boshpanalarga boyligi eng qadimgi davrlardan oq ibtidoiy odamlarning diqqatini tortmay qolmadi. Birgina Ohangaron daryosi vodiysida qadimgi tosh davri odamlari 500 ming yillar davomida mavsumiy istiqomat qilganlar.

Toshkent vohasining eng qadimgi yodgorliklari ham Ohangaron daryosi vodiysida joylashgan. Bularga Ko'lbuloq makonining, Qizilolma 2 ustaxonasining quyi qatlamlarini hamda Jarsoy 1 topilmajoyi materiallarini kiritish mumkin. Madaniy jihatdan ushbu yodgorliklarni ikkiga: mikok (Ko'lbuloq, Qizilolma 2 ning quyi qatlamlari) va levallua- ashel madaniyatlariga ajratish mumkin. Demak, aytish mumkinki, ilk paleolit davrida Ohangaron vodiysida ikki xil madaniyat sohiblari mavsumiy istiqomat qilganlar va o'ziga xos madaniyatlar yaratganlar.

Toshkent vohasining o'rta paleolit davriga oid yodgorliklari Ohangaron hamda Paltov daryolari vodiylarida konsentrasionalashgan va son jihatidan ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Aytish mumkinki, o'rta paleolit davrida ibtidoiy odamlar demografik jihatdan ko'payishganlar va vohaning turli qulay hududlariga tarqalganlar. Ushbu yodgorliklarga Ko'lbuloqning o'rta qatlamlari, Ohangaron topilmajoyi, Obiraxmatning quyi qatlamlari, Paltov g'ori va h.k. materiallarini kiritish mumkin. O'rta paleolit davrida vohada yashagan ibtidoiy ajdodlarimiz madaniy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy qilib, keyingi so'ngi paleolit davri madaniyatlarining shakllanishi uchun zamin hozirlaganlar. Madaniy taraqqiyot vohada avtohton tarzda sodir bo'lgan. Bunga misol qilib, Ko'lbuloq va Obiraxmat yodgorliklari o'rta qatlamlari materiallarining o'rta paleolitdan so'ngi paleolitga o'tish davrini o'zida aks ettirganligini keltirish mumkin. Aytish

mumkin, ushbu yodgorliklar dunyoda barmoq bilan sanarli darajada noyob o'tish davrini ifodalovchi yirik ahamiyatga molik makonlar hisoblanadi.

Keyingi so'ngi paleolit davri ham Toshkent vohasida anchayin yaxshi o'rganilgan. Vohada Obiraxmat va Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari, Qizilolma 2 materiallari hamda To'daxotin yodgorliklari so'ngi paleolit davriga oid deb topilgan. Madaniy jihatdan Obiraxmat, Ko'lbuloq, Qizilolma 2 materiallari yagona madaniyatning turli bosqichlariga oid makonlar ekanligi aniqlangan. Bu jihatdan Obiraxmat g'ori materiallari nafaqat o'tish, balki so'ngi paleolit davrining boshlariga oid xarakterga ega. Qizilolma 2 materiallari ham so'ngi paleolitning boshlari bilan sanalangan. Biroq, Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari so'ngi paleolitning ikkinchi yarmiga yoki oxirlariga oid ekanligi aniqlangan. Toshkent vohasidagi To'daxotin yodgorligi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning industriyasi so'ngi paleolitning oxirlariga oid bo'lsada, unda geometrik shakldagi mikro qurollar seriyalari mavjud. Ular qatoriga uchburchaksimon geometrik qurollarni kiritish mumkin. Umuman olganda ushbu tosh qurollar mezolit va neolit davri yodgorliklari uchun xosdir. To'daxotin makonidan bunday qurollarning topilishi vohada mezolit davri jamoalarining mahalliy so'ngi paleolit madaniyatlari bazasida shakllanganligidan va taraqqiyotning avtohton xarakterga ega bo'lganligidan dalolat beradi. To'daxotin makonining o'xshashi yo'q va u alohida madaniyatga ajatilgan.

Toshkent vohasida mezolit davriga oid birgina yodgorlik – Qo'shilish makoni ochib o'rganilgan. Uning topilishi vohada ibtidoiy ajdodlarimiz madaniyatlari qadimgi va o'rta tosh davrlarida uzluksiz taraqqiy qilganligini ko'rsatadi. Ushbu yodgorlikning mezolit davri boshlariga oidligi ham katta ahamiyatga egadir.

Vohaning ibtidoiy tarixida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bir qatorda madaniyat, xususan tasviriy san'at ham gurkirab rivojlangan. Bu haqda vohadan topilgan Xo'jakent va Qoraqiyasoy qoyatosh yodgorliklari guvohlik beradi. Ushbu qoyalardagi suratlar bu yerdagi aholining turmush tarzi, iqtisodiy-ijtimoiy

hayoti, moddiy madaniyati va diniy qarashlari hamda aholining paleoantropologik tarixi haqida muhim ma'lumotlarni beradi. Bundan tashqari, ushbu suratlarga qarab, vohaning tabiiy sharoitlari, fauna va florasida ham ma'lumotlar olinishi mumkin.

Umuman, Toshkent vohasi yer yuzining ibtidoiy odamlar tomonidan eng qadimgi davrlardan o'zlashtirilgan, turli madaniyatlar taraqqiyoti chorrohasida joylashgan yodgorliklarga boy hududlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abramova Z.A. Paleolit Sredney Azii i Kazaxstana. V tome: Paleolit SSSR. M.: Izd-vo «Nauka». 1984. – S. 308;
2. Agzamxodjayev T. Naskalniye izobrajeniya v Bostandiskom rayone Tashkentskoy oblasti. Obshchestvenniye raboti AN Uz SSR. 1960. S. 20-82.
3. Alpisbayev X. Noviye naskalniye izobrajeniya Bostandiskogo rayona . TIIE AN Kaz SSR. 1956. - S. 182-188
4. Akimova Ye. V., Stasyuk I. V. Motuzko A. N. K probleme izucheniya «melkoplastinchatix industriy» v paleolite Sredney Sibiri Sosiogenez v Severnoy Azii. – Irkutsk, Irkutskiy MION, 2005. – Chast 1. – S.15–20;
5. Anisyutkin N.K., Islamov U.I., Kraxmal K.A., Sayfullayev B.K., Xushvaktov N.O. Новы́е issledovaniya paleolita v Axangarane (Uzbekistan). Sankt-Peterburg. 1995. -S. 12-27.
6. Anisyutkin N.K., Islamov U.I., Kraxmal K.A., Sayfullayev B.K., Xushvaktov N.O. Predvaritelnyye issledovaniya doliny reki Axangaran za 1994 g.». Sankt-Peterburg. 1995. – S. 16-18;
7. Asqarov A.A. Drevnyaya Baktriya. Tashkent. 1977. S. 78.
8. Vasilyev S. A. Pozdniy paleolit verxnego Yeniseya (po materialam mnogoslownyx stoyanok rayona Mayny). – SPb.: Sentr “Peterburgskoye Vostokovedeniye”, 1996. – S. 224;
9. Vinogradov A. V. Drevnyye oхotniki i rybalovy Sredneaziaskogo mejdurechya. M. 1981. –S. 14. Djurakulov M. D. Kamennyy vek Zarafshanskoy doliny. Samarkand. 1992. -S. 40.
10. Vishnyaskiy L.B. Paleolit Sredney Azii i Kazaxstana. Sankt-Peterburg. 1996. -S. 107.
11. Derevyanko A.P., Islamov U.I., Petrin V.T., Suleymanov R.X., Alimov K., Krivoshepin A.I., Anoykin A.A., Milyutin K.I., Sayfullayev B.K. Issledovaniya grota Obi Raxmat (Respublika Uzbekistan) v 1999 g. // Problemy arxeologii,

- etnografii, antropologii Sibiri i sopredelnykh territoriy. Izd-vo IAET SO RAN, Novosibirsk. 1999. -S. 44-
12. Derevyanko A.P., A.I. Krivoschapkin, A.A. Anoykin, U.I. Islamov, Petrin V.T., Suleymanov R.X., Sayfullayev B.K. Ranniy verxniy paleolit Uzbekistana: Industriya grotа Obi Raxmat (po materialam sloyev 2-14) // Arxeologiya, etnografiya i antropologiya Yevrazii 4 (8). Novosibirsk. 2001. -S. 144.
13. Derevyanko A.P., Anoykin A.A., Krivoschapkin A.I., Milyutin K.I., Islamov U.I., Sayfullayev B.K. Novyye dannyye o paleoliticheskix industriyax рещуеры Paltau (Respublika Uzbekistan) // Problemy kamennogo veka Sredney i Sentralnoy Azii. Izd-vo Instituta arxeologii i etnografii SO RAN. Novosibirsk. 2002. –S. 124. 14.
14. Derevyanko A.P., Krivoschapkin A.I., Anoykin A.A., Milyutin K.I., Islamov U.I., Sayfullayev B.K. Issledovaniye grotа Obi Raxmat (Respublika Uzbekistan) // Problemy kamennogo veka Sredney i Sentralnoy Azii. Izd-vo Instituta arxeologii i etnografii SO RAN. 2002.-S. 44.
15. Derevyanko A.P., Islamov U.I., 2003. Derevyanko A.P., Islamov U.I., Novosibirsk. 2004. -S. 158.
16. Derevyanko A.P., Kolobova K.A., Flyas D., Islamov U.I., Kov N., Koup D., Zvins N., Pavlenok K.K., Mamirov T.B., Kraxmal K.A., Muxtarov G.A. Vozobnovleniye arxeologicheskix rabot na mnogoslownoy stoyanke Kulbulak // Problemy arxeologii, etnografii i antropologii Sibiri i sopredelnykh territoriy: Mat-ly godovoy sessii In-ta arxeologii i etnografii SO RAN 2007. – T.13. – Ch.1. – S. 83-89;
17. Derevyanko A. P., Islamov U.I., Kolobova K. A., Flyas D., Krivoschapkin A. I., Leshinskiy S. V., Kraxmal K. A., Zvins S. V., Pavlenok K. K., Muxtarov G. A. Vozobnovleniye arxeologicheskix rabot na mnogoslownoy stoyanke Kulbulak v 2007 g. // Istoriya materialnoy kultury Uzbekistana. – Выр. 36. – Tashkent: Izd-vo «Fan» AN RUz, 2008. – S. 24-37;

18. Derevyanko A.P., Islamov U.I., Krivoschapkin A.I., Kolobova K.A., Flyas D. Stranitsy istorii drevney kultury Uzbekistana // O'zbekiston poytaxti 2200 yoshda. Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya, Toshkent, 2009. 7-16 b;
19. Derevyanko A. P., Kolobova K. A., Islamov U. I., Flyas D., Pavlenok K. K. Novyy verxnepaleoliticheskiy pamyatnik v doline reki Axangaron (Uzbekistan) // Problemy arxeologii, etnografii i antropologii Sibiri i sopredelnykh territoriy: Mat-ly godovoy sessii In-ta arxeologii i etnografii SO RAN 2007. – T.13. – Ch.1 – S. 80-83;
20. Derevyanko A.P., Kolobova K.A., Flyas D., Islamov U.I., Kov N., Koup D., Zvins N., Pavlenok K.K., Mamirov T.B., Kraxmal K.A., Muxtarov G.A. Vozobnovleniye arxeologicheskix rabot na mnogoslownoy stoyanke Kulbulak // Problemy arxeologii, etnografii i antropologii Sibiri i sopredelnykh territoriy: Mat-ly godovoy sessii In-ta arxeologii i etnografii SO RAN 2007. – T.13. – Ch.1. – S. 83-89;
21. Derevyanko A. P., Islamov U.I., Kolobova K. A., Flyas D., Krivoschapkin A. I., Lezhinskiy S. V., Kraxmal K. A., Zvins S. V., Pavlenok K. K., Muxtarov G. A. Vozobnovleniye arxeologicheskix rabot na mnogoslownoy stoyanke Kulbulak v 2007 g. // Istoriya materialnoy kultury Uzbekistana. – Вып. 36. – Tashkent: Izd-vo «Fan» AN RUz, 2008. – S. 24-37;
22. Derevyanko A.P., Islamov U.I., Krivoschapkin A.I., Kolobova K.A., Flyas D. Stranitsy istorii drevney kultury Uzbekistana // O'zbekiston poytaxti 2200 yoshda. Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya,- Toshkent, 2009. – S.7-16;
23. Derevyanko A.P., Islamov U.I., Petrin V.T., Suleymanov R.X., Krivoschapkin A.I., Alimov K., Kraxmal K.A., Fedeneva I.N., Zenin A.N., Anoykin A.A. Issledovaniya grota Obi-Raxmat (Respublika Uzbekistan) v 1998 g.// Problemy arxeologii, etnografii, antropologii Sibiri i sopredelnykh territoriy. – Novosibirsk: Izd-vo IAET SO RAN. – 1998. – S. 37-45;

24. Derevyanko A.P., Islamov U.I., Petrin V.T., Suleymanov R.X., Taymagambetov J.K., Krivoschapkin A.I., Anoykin A.A., Zenin A.N., Kraxmal K.A., Alimov K.A. Rezultaty vozobnovleniya issledovaniy grota Obi-Raxmat O'MMT, №30. – Samarkand, 1999. – S. 10-14;
25. Derevyanko A.P., Islamov U.I., Petrin V.T., Suleymanov R.X., Krivoschapkin A.I., Alimov K., Anoykin A.A., Milyutin K.I., Sayfullayev B. Issledovaniya grota Obi-Raxmat (Respublika Uzbekistan) v 1999 g. // Problemy arxeologii, etnografii, antropologii Sibiri i sopredelnykh territoriy. – Novosibirsk: Izd-vo IAET SO RAN. – 1999. – S. 60-66;
26. Derevyanko A.P., Islamov U.I., Krivoschapkin A.I., Anoykin A.A., Milyutin K.I., Sayfullayev B.K. Issledovaniya grota Obi-Raxmat (Respublika Uzbekistan) v 2001 g. // Problemy kamennogo veka Sredney i Sentralnoy Azii. – Novosibirsk: Izd-vo IAET SO RAN, 2002. – S. 68-73;
27. Derevyanko A. P., Kolobova K. A., Islamov U. I., Flyas D., Pavlenok K. K. Novyy verxnepaleoliticheskiy pamyatnik v doline reki Axangaron (Uzbekistan) // Problemy arxeologii, etnografii i antropologii Sibiri i sopredelnykh territoriy: Mat-ly godovoy sessii In-ta arxeologii i etnografii SO RAN 2007. – T.13. – Ch.1 – S. 80-83;
28. Derevyanko A.P., Krivoschapkin A.I., Anoykin A.A., Islamov U.I., Petrin V.T., Sayfullayev B.K., Suleymanov R.X. Ranniy verxniy paleolit Uzbekistana: industriya grota Obi-Raxmat (po materialam slojev 2 - 14). // Perexod ot srednego k pozdnemu paleolitu v Yevrazii: gipotezy i fakty. – Novosibirsk: Izd-vo IAET SO RAN, 2005. – S. 446 – 467;
29. Derevyanko A.P., Islamov U.I., Petrin V.T., Suleymanov R.X., Alimov K., Krivoschapkin A.I., Anoykin A.A., Milyutin K.I., Sayfullayev B.K. Issledovaniya grota Obi Raxmat (Respublika Uzbekistan) v 1999 g. \ Problemy arxeologii, etnografii, antropologii Sibiri i sopredelnykh territoriy. IAET SO RAN. Novosibirsk. 1999.-S. 44.

30. Derevyanko A.P., Islamov U.I., Krivoschapkin A.I. Mestonaxojdeniya Dodekatym na Chirchike. AO. Tashkent. 2006. –S. 23.
31. Djurakulov M. D. Samarkandskaya stoyanka i problemy verxnego paleolita v Sredney Azii. – Tashkent, 1987. –S. 172;
32. Djurakulov M.D. Kamennyy vek doliny reki Zarafshana \\\ avtoref. Diss. Dokt. Ist. Nauk. \\\ Samarkand. 1990. -S. 30.
33. Islamov U.I., Kraxmal K.A., Anisyutkin N.K. Tashsay-novy drevnepaleoliticheskiy pamyatnik Uzbekistana // ONU, №1-2-3, 1995. – S. 47-48;
34. Islamov U.I., Anisyutkin N.K., Kraxmal K.A., Sayfullayev B.K., Xushvaktov N.O. Otchet o prodelannoy rabote kulbulakskim otryadom v 1994 g. «Paleoekologiya i puti pervonachalnogo zaseleniya i objivaniya severo-vostoka Uzbekistana». Samarkand. 1995. – S. 16;
35. Islamov U.I., Anisyutkin N.K., Kraxmal K.A. Drevnepaleoliticheskiy pamyatnik KYZYLALMA // ONU. Tashkent, 1994. № 9-10. – S. 53-54;
36. Islamov U.I., Anisyutkin N.K., Kraxmal K.A., Sayfullayev B.K., Xushvaktov N.O. «Ohangaron paleolitchilar guruhi 1995 yilgi yozgi va kuzgi mavsumlarda olib borilgan dala-tadqiqot ishlarining hisoboti». Samarqand. 1996. – S. 21;
37. Islamov U.I., Krivoschapkin A.I. Industriya grota Obi-Raxmat (Uzbekistan) v kontekste poyavleniya sovremennogo povedencheskogo kompleksa na territorii Sentralnoy Azii // O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlar 2006-2007 yillar. №6.- Toshkent, 2009. – S. 131-135;
38. Islamov U.I., Krivoschapkin A.I., Sayfullayev B.K., Muxammadiyev A. G., Alimov K., Kolobova K.A., Slavinskiy V.S. Otchyot po arxeologicheskim rabotam 2005 god. Arxeologicheskiye issledovaniya v basseynе reki Paltau. Samarkand, 2006. Nauchnyy arxiv IA AN RUz. Fond 07. 01. №164. – S. 13-18;
39. Islamov U.I., Krivoschapkin A.I., Kolobova K.A., Milyutin K.I., Muxammadiyev A. G. Otchyot po arxeologicheskim rabotam 2006 gg.

- Polevyye issledovaniya stoyanok Obi-Raxmat i Dodekatym-P. – Samarkand, 2007. Nauchnyy arxiv IA AN RUz. Fond 07. 01. №165. – S. 74-87;
40. Islamov U.I., Krivoschapkin A.I., Kolobova K.A., Milyutin K.I., Muxammadiyev A. G. Otchyot po arxeologicheskim rabotam 2006 gg. Polevyye issledovaniya stoyanok Obi-Raxmat i Dodekatym-P. – Samarkand, 2007. Nauchnyy arxiv IA AN RUz. Fond 07. 01. №165. – S. 74-87;
41. Islamov U. I. Obishirskaya kultura, T. 1980.-S. 17. Islamov U. I. Pechyera Machay. T. 1975.-S. 76.
42. Islamov U.I. Mezoliticheskaya stoyanka Kushilish pod Tashkentom \ ONUz. № 7. Tashkent. 1970. -S. 13. Islamov U.I. U istokov drevney kultury Tashenta. Tashkent. 1982. -S. 85.
43. Islamov U.I. K voprosu o lokalnykh variantax epoxi mezolita i neolita Uzbekistana \ IMM KU 11. 1974a. -S. 30.
44. Islamov U.I. K vydeleniyu lokalnykh variantov mezolita Uzbekistana \ IMKU. 12. Tashkent. 1975b. -S. 29.
45. Kabirov A. Eksperimentalnoye izucheniye texniki naneseniya petroglifov v ushchelye Sarmyichsaya. IMKU. 1974. S. 16.
46. Kasyimov M.R. Problemy paleolita Sredney Azii i Yujnogo Kazaxstana \ Avtoreferat dok. Diss. Novosibirsk. 1990. -S. 40.
47. Kasyimov M.R. Rezultaty rabot Axangaranskogo paleoliticheskogo otryada po dannim raskopok 1975 g. \ IMKU. № 14. 1978. -S. 12.
48. Kasyimov M.R., Tetyuxin G.F. K voprosu ob arxeologo-geologicheskom vozroste mnogoslownoy paleoliticheskoy stoyanki Kulbulak \ IMKU. Выр. 16. 1980. -S. 13.
49. Kasyimov M.R., Godin M.X. O kompleksnom issledovanii paleoliticheskoy stoyanki Kulbulak \ IMKU. Выр. 17. 1982. -S. 9.
50. Kasyimov M.R., Godin M.X. Vajneyshiye rezultaty issledovaniy mnogoslownoy stoyanki Kulbulak \ IMKU. Выр. 19. 1984. -S. 8.

51. Касымов M.R., Tetyuxin G.F., Godin M.X., Xusanbayev D.I. K voprosu o kompleksnom issledovanii mnogoslownoy paleoliticheskoy stoyanki Kulbulak v Uzbekistane \ KSIA. Выр. 181. 1985.-S. 10.
52. Касымов M.R. Mnogoslownaya paleoliticheskaya stoyanka Kulbulak v Uzbekistane \ MIA. № 185. 1972 b. -S. 17.
53. Касымов M.R., Godin M.X., Xudayberdiyev T.N. Domustyerskiye kultury na territorii Uzbekistana \Xronostratigrafiya paleolita Severnoy, Sentralnoy i Vostochnoy Azii i Ameriki. Novosibirsk. 1992. -S. 38-49.
54. Касымов M.R. Kultury i varianty paleolita Uzbekistana // Kamennyy vek Sredney Azii i Kazaxstana. Tashkent, 1972. – S. 16;
55. Касымов M.R. O problemax izucheniya paleolita na territorii Sredney Azii i Yujnogo Kazaxstana // ONU, № 9, Tashkent, 1990a. – S. 22;
56. Касымов M.R., Duke X., Grechkina T.Yu. O novyx dannyx po kamennomu veku Tuyabuguza // IMKU, вып. 15. Tashkent. 1979. – S. 11-15;
57. Касымов M.R. Pamyatniki kamennogo veka v doline Angrena // ONU. Tashkent, 1967. №2. – S. 57-58;
58. Касымов M.R. Kremneobrabatyvayushchiye masterskiye i shaxty kamennogo veka Sredney Azii. Tashkent, 1972;
59. Kolbisev A. Tashkentskiy oasis. Tashkentt. Izd-vo Uzbekistan. 1983. -S. 6.
60. Korobkova G.F. Tradisii i innovasii v kulturax mezolita i neolita Baktrii \ Drevneyshiye kultury Baktrii. Tezisy sov-fransuzskogo simpoziuma. Dushanbe. 1982. -S. 159.
61. Korobkova G.F. Probelma kultur i lokalnykh variantov v mezolite i neolite Sredney Azii \ MIA. 122. M. 1970. -S. 24.
62. Korobkava G.F. Mezolit Sredney Azii i yego osobennosti \ KSIA. 149. M.: 1977. -S. 112.
63. Korobkova G.F. Problemy kulturno-istoricheskogo i xozyaystvennogo razvitiya naseleniya drevnego Dagestana. M. -S. 1982. -S. 159.

64. Korobkova G.F. Tradisii i innovasii v kulturax mezolita i neolita Baktrii \ Drevneyshiye kultury Baktrii. Tezisy sov-fransuzskogo simpoziuma. Dushanbe. 1982. -S. 159.
65. Krivoschapkin A.I., Anoykin A.A., Milyutin K.I., Sayfullayev B.K. Novyye issledovaniya v grote Obi-Raxmat // O'MMT, №33. – Toshkent, 2002. – S. 35-40;
66. Krivoschapkin A.I., Milyutin K.I., Slavinskiy V.S., Rybin Ye.P., Kolobova K.A.,
67. Krivoschapkin A.I. Grot Obiraxmat. IMKU №35. 2008. -S. 26.
68. Masson M.Ye. Srednyaya Aziya i Drevniy Vostok. M-L. Nauka .1964. – S. 213.
69. Medvedov G.I., Nesmeyanov -S.A. Tipizasiya “kulturnykh otlojeniy” i mestonaxojdeniy kamennogo veka \ Metodicheskiye problemy arxeologii Sibiri. Novosibirsk. 1988. -S. 139.
70. Nasriddinov X.K. Grot Obi Raxmat \ IMKU. Vyp. 5. 1964. -S.7.
71. Sulaymanov R.X. Statisticheskoye izucheniye kultury grota Obi-Raxmat. Tashkent. 1972. -S. 98.
72. Novikov I.S., Vysoskiy Ye.M., Muxammadiyev A.G. Novyye stoyanki kamennogo veka v bvsseyne reki Paltau // Problemy arxeologii, etnografii, antropologii Sibiri i sopredelnykh territoriy. – Novosibirsk: Izd-vo IAEt SO RAN, 2005. - T.11. - Ch.1. – S. 131-137;
73. Okladnikov A.P. Paleoliticheskoye vremya na Tyanshane i Yeniseye \ Istoriya Kirgizii T. 1. Frunze. 1956. -S. 145. Okladnikov A.P. Raboty paleoliticheskogo otryada v 1958 g. (predvaritelnoye soobshcheniye) \ Izvestiya ANUzb.SSR. seriya obshchestvennykh nauk. № 4. Tashkent. 1958. -S. 135.
74. Okladnikov A.P. Petroglify Angary. M-L 196. S. 210-229
75. Piatrovskiy B.B. Vanskoye sarstvo (Urartu). Izd-vo vost. Lit. 1959. S. 152-153.

76. Ranov V.A., Nesmeyanov S.A. Paleolit i stratigrafiya antropogena Sredney Azii \ Dushanbe. 1973, -S. 92-94.
77. Ranov V.A., Dodonov A.Ye. O periodizatsii i stratigrafii nijnepaleoliticheskix stoyanok Sredney Azii \ Problemy vzaimosvyazi prirody v kamenom veke Sredney Azii. Tashkent. 1988. -S. 72.
78. Suleymanov R.X., Toychiyev X.A., Tashkenbayev N.X., Djurakulov M.Dj., Xolmatov N.U., Kraxmal K.A., Ibragimov R.Z., Glantz M., Shrauber A.X., Burger O.F., Simmerman X.P. Otchet po rezultatam polevyyx issledovaniy sovmestnoy ekologo-arxeologicheskoy ekspeditsii po izucheniyu pamyatnikov kamennogo veka (may-iyun, 2001 g). – Tashkent, 2001. Nauchnyy arxiv IA AN RUz. Fond 07. 01. №160. – S. 2-13;
79. Suleymanov R.X. Statisticheskoye izucheniye kul'tury grola Obi-Raxmat. – Tashkent: Fan, 1972. – S. 171;
80. Formozov Naskal'nyye izobrajeniya Zarautkamara. SA №4. 1966. - S. 109.
81. Xazanov A.M. Slojnyye luki Yevraziyskix stepey i Irana v skifo-sarmatskoye vremya. MK narodov Sredney Azii i Kazaxstana. M. 1966. -S. 31.
82. Xolmatov N. U. Mezolit i neolit Nijnego Zarafshana., T., Fan., 2007. -S. 27-44..
83. Xujanazarov M. Naskal'nyye izobrajeniya Severo-Vostochnogo Uzbekistana. Diss. Na soisk. Uchenyy stepeni k.i.n. 1985. – S. 16.
84. Chayld Gordon. Drevneyshiy Vostok v svete novyyx raskopok. M. 1956. - S. 358.
85. Sher Ya.A. Petroglify Sredney i Sentralnoy Azii. 1980. S. 201.
86. Sher Ya.A. Kolesnitsy saymalitasha. Po sledam pamyatnikov istorii kul'tury Kirgistana. 1980. S. 48;

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI**

Arxeologiya kafedrası

**TOSHKENT VOHASI IBTIDOIY DAVR JAMOALARI
MADANIYATI**

ILLYUSTRATIV ALBOM

Ilmiy rahbar:

t.f.n.: Djo'raqulova D.M

Bajaruvchi:

Qandaharov M.M

SAMARQAND-2012

Illyustrasiyalar ro'yxati:

- 1-Rasm.** Toshkent vohasining paleolit davri yodgorliklari xaritasi: 1-Ko'lbuloq; 2 –Qizilolmasoy 1, 2; 3 –Jarsoy; 5-Obiraxmat; 6-To'daxotin 1, 2; 7-Paltov; 8-Qizilolma 2.
- 2-Rasm.** Obiraxmat g'orining geografik xaritasi.
- 3-Rasm.** Obiraxmat g'orining umumiy ko'rinishi va stratigrafik kesmasi.
- 4-Rasm.** Obiraxmat g'ori 16-madaniy qatlamidan topilgan paleoantropologik materiallar (tishlar).
- 5-Rasm.** Obiraxmat g'ori paleoantropologik topilmalari (tishlar va suyak qoldiqlari).
- 6-Rasm.** Obiraxmat g'orining stratigrafik kesmasi va xronologiyasi.
- 7-Rasm.** Obiraxmat g'ori tosh buyumlari (nukleuslar).
- 8-Rasm.** Obiraxmat g'ori tosh buyumlari (nukleuslar va tosh qurollar).
- 9-Rasm.** To'daxotin 1 va 2 makonlari.
- 10-Rasm.** To'daxotin 1 va 2 makonlarining joylashuvi.
- 11-Rasm.** To'daxotin 2 makonida qazish ishlari.
- 12-Rasm.** To'daxotin 2 makoni sharqiy devorining stratigrafiyasi.
- 13-Rasm.** To'daxotin 2 makoni tosh buyumlari.
- 14-Rasm.** To'daxotin 2 makoni tosh buyumlari.
- 15-Rasm.** To'daxotin 2 makoni tosh buyumlari.
- 16-Rasm.** To'daxotin 2 makoni tosh buyumlari.
- 17-Rasm.** O'zbekistonning qoyatosh yodgorliklari xaritasi.
- 18-Rasm.** Toshkent vohasi qoyatosh suratlarining sxematik xaritasi.
- 19-Rasm.** Xo'jakent qoyatosh suratlari.
- 20-Rasm.** Xo'jakent qoyatosh suratlari.
- 21-Rasm.** Xo'jakent qoyatosh suratlari.
- 22-Rasm.** Xo'jakent qoyatosh suratlari.
- 23-Rasm.** Xo'jakent qoyatosh suratlari.

24-Rasm. Xo'jakent qoyatosh suratlari.

25-Rasm. Qoraqiyasoy suratlari.

26-Rasm. Qoraqiyasoy suratlari.

27-Rasm. Qoraqiyasoy suratlari.

28-Rasm. Qoraqiyasoy suratlari.

29-Rasm. Qoraqiyasoy suratlari.

30-Rasm. Qoraqiyasoy suratlari.